

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TALIM
VAZIRLIGI
ZAXIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI ANDIJON DAVLAT
UNIVERSITETI
TARIX FAKULTETI
O'ZBEKISTON TARIXI KAFEDRASI
TARIX TALIM YO'NALISHI IV BOSQICH BITIRUVCHISI
G'OFUROV FARRUHNING**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Maʼbʼy: Amir Temur va Temuriylar davrida yer egaligi munosabatlari.

Ilmiy



raxbar:

**M.G'. Abdullayev .
t.f.n. Dotsent**

ANDIJON – 2017

Mundarija

KIRISH.....	3-13
I BOB AMIR TEMUR SALTANATIDA AGRAR ISLOHOTLAR.....	14-35
I.1. Amir Temur saltanatida yer egaligi va yerdan foydalanish fo’rmalari.....	14-21
I.2 Amir Temurning agrar islohotlari.	22-35
II BOB. TEMURIYLAR DAVRIDA YER EGALIGI MUNOSABATLARI ..	36-71
II.1. Temuriylar hukumronligi davrida agrar sohadagi o’zgarishlar.....	36-58
II.2. Bunyodkorlik ishlari, yangi irigatsiya tarmoqarining barpo etilishi.....	59-61
II.3. Temriylar davrida dehqonchilik va chorvachilikning o’ziga hos xususiyatlari.....	61-71
XULOSA.....	72-75
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YHATI.....	76-77

Kirish

“Soxibqiron Amir Temur xaqida aloxida to’xtalishimiz tabiydir. Chunki

tengsiz azmu shijoati mardlik va donishmandlik ramzi bo'lgan bu mumtoz siymo buyuk saltanat barpo etib, davlatchilik borasida o'zidan xam amaliy, xam nazariy meros qodirdi, ilmu – fan, madaniyat, bunyodkorlik, din va manaviyat rivojiga keng yo'l ochdi. Shaxsan men “Temur tuzuklari”ni xar gal o'qir ekanman, xuddiki o'zimga qandaydir ruxiy kuch- quvvat olgandek bo'laman. O'z ish faoliyatimda bu kitobga takror-takror murojaat qilib, undagi xech qachon eskirmaydigan, inson manaviyati uchun bugun xam oziq bo'ladigan xikmatli fikrlarining qanchalik xayotiy ekaniga ko'p bor ishonch xosil qilganman.”¹

I.A. Karimov

Mavzuning dolzarbligi. Bugungi kunda mustaqil O'zbekiston ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy hayotining barcha jabhalarida amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida, erkin tafakkurga ega va milliy g'oya ongi va qalbiga singdirilgan jamiyat a'zolarini tarbiyalash vazifalarini bajarishda tarix fanining roli jiddiy ravishda ortib bormoqda. „, Tarix “... millatning haqiqiy tarbiyachisiga aylanib bormoqda. Buyuk ajdodlarimizning ishlari va jasoratlari tarixiy xotiramizni jonlantirib, yangi fuqarolik ongini shakllantirmoqda”². O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov tarixiy xotira haqida fikr yuritir ekan: “Tarixiy xotira tuyg'usi to'laqonli ravishda tiklangan, xalq bosib o'tgan yo'l o'zining barcha muvaffaqiyat va zafarlari, yo'qotish va qurbonlari, quvonch va iztiroblari bilan xolis va haqqoniy o'rganilgan taqdirdagina chinakam tarix bo'ladi,”³ – deya haqli tarzda qayd etgan edi.

Tarix fanining jamiyat taraqqiyotidagi rolining o'sib borishi natijasida uning oldida turgan dolzarb muammolar ko'lami aniqlandi. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimovning bir guruh tarixchilar va jurnalistlar bilan 1998-yil 26-iyunda bo'lgan uchrashuvi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Tarix instituti

¹ Karimov I. Yuksak manaviyat yegilmas kuch.- T.: „Manaviyat“ 2008. 44-45 betlar.

² Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари . Хавфсизлик ва тараққиёт йўлида. 6-жилд. – Т.: Ўзбекистон, 1998. – Б. 137.

³ Karimov I. Yuksak manaviyat yegilmas kuch.- T.: „Manaviyat“ 2008. 97- bet.

faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi qarorida tarixchilar oldida turgan dolzarb muammolardan biri sifatida o'zbek davlatchiligi tarixini o'rganish asosiy vazifa qilib belgilangan. Shuningdek, davlatchilikning turli tarixiy bosqichlarida O'zbekiston hududida yashagan xalqlarning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va ma'naviy hayoti masalalarini o'rganish zarurligi ko'rsatib berildi¹. Ushbu vazifadan kelib chiqqan holda bugungi kunda O'zbekiston hududida qadimgi davrlardan hozirgacha kechgan siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlarning turli masalalarini qamrab olgan tadqiqotlar yuzaga keldi.

O'zbekiston hududida yuzaga kelgan qadimgi Baqtriya (mil.av. VII asr), Xorazm (mil. av. VII asr), Kushon (mil.av. I asr), Turk xoqonligi (VI asr), Amir Temur saltanati (XIV asr oxiri - XV asr boshlari) kabi davlatlar tariximizda alohida o'rin tutadi. Ularda o'ziga xos davlat boshqaruv asoslari yaratilgan bo'lib, o'z davrida davlat, halq va jamiyatning tinchligi, taraqqiyoti hamda farovonligini taminlashga xizmat qilgan.

Ular orasida Amir Temur saltanati yuksak davlatchilik ta'limoti yaratilgan bosqich sifatida o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Saltanatda joriy etilgan boshqaruv asoslari o'z davrida nafaqat mamlakatda istiqomat qilayotgan kishilarning manfaatlari hamda farovonligi uchun xizmat qilgan, balki g'arb va sharq davlatlari o'rtasidagi munosabatlar, halqaro hayotning iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy barqarorligi, rivojiga ham samarali ta'sir ko'rsatgan.

Bu ulkan o'zgarishlarning yuzaga kelishida Amir Temurning roli katta bo'lsa-da, uning shaxsi, davlatchilik faoliyati, milliy va umuman stivilizastiya tarixidagi o'zni sovet davrida salbiy jihatdan talqin etildi. Sobiq ittifoq yuritgan bunday siyosatning zaminida o'zbek xalqidan milliy tuyg'u, o'zlikni anglash g'oyalarini tagtomiri bilan yo'qotish maqsadlari yashiringan bo'lib, yurtimizda mustaqillikning qo'lga kiritilishi bu niyat va harakatlarning bartaraf etilishida katta kuch bo'lib xizmat

¹ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси Тарих институти фаолиятини такомиллаштириш тўғрисида” ги Қарори. Халқ сўзи. 1998 йил 28 июль.

qildi. Istiqlol tufayli Sohibqironning tariximizdagi, umuman insoniyat tarixidagi katta xizmatlari munosib baholana boshlandi.

Vatanimizda Amir Temurning faoliyatini xolis o'rganishda O'zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Abdug'anievich Karimov olib borgan siyosat alohida ahamiyatga ega. Hukumatimiz «Amir Temur tavalludining 660 yilligini nishonlash to'g'risida» (1994- yil, 29 - dekabr), «1996 - yilni Amir Temur yili deb e'lon qilishi to'g'risida»¹ (1995- yil, 26- dekabr), «Temuriylar tarixi» davlat muzeyini tashkil etish va «Amir Temur» ordenini ta'sis etish to'g'risida (1996- yil) qator farmon va qarorlar chiqardiki, bu tadbirlar temurshunoslikning keyingi taraqqiyoti uchun katta zamin yaratdi. Amir Temurning dunyo stivilizastiyasi rivojiga qo'shgan hissasi, tarixdagi buyuk xizmatlari Birlashgan Millatlar tashkilotining talim, fan va madaniyat masalalari bilan shug'ullanuvchi YuNESKO tomonidan ham e'tirof etilib uning 660 yillik yubileyini nishonlash to'g'risida tashkilotining qaror qabul qilinishiga erishildi. 1996- yil Amir Temur yili deb elon qilindi va bu tarixiy voqea dunyo miqyosida keng nishonlandi.

Mavzuning o'rganilish darajasi. Tadqiqot mavzusi hozirgacha alohida tadqiqot ob'ekti sifatida o'rganilmagan. Shu davrgacha e'lon qilingan manba va adabiyotlarda ushbu mavzuga doir ayrim ma'lumotlar mavjud bo'lsa-da, biroq ular ushbu mavzuni alohida tadqiqot ob'ekti sifatida umumlashma tarzda o'rganilmagan.

Amir Temurning dunyodagi eng kuchli va katta saltanatlardan birini barpo etganligi, harbiy sanati, davlatni qanday asoslarga tayanib boshqarganini anglab yetish davrlar osha tadqiqotchilar hamda siyosatchilarning arboblarning diqqat-e'tiborini tortib kelgan.

Ularning ko'lami to'g'risida umumiy tasavvur uyg'otuvchi bibliografik tadqiqotlar fikrimizga dalildir².

¹ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Амир Темур таваллудининг 660 йиллигини нишонлаш тўғрисида”ги қарори. Тошкент ҳақиқати. - 1995 йил, 4 янв.

² Темур ва Улуғбек даври тарихи. - Тошкент: Қомуслар бош таҳририяти, 1996. - 264 б.; Амир Темур жаҳон тарихида /Иш раҳбари С.Саидқосимов. - Тошкент: Шарқ, 1996. - 296 б.; Алимов Р.А. Соҳибқирон Амир Темур (Методик тавсиянома). - Тошкент, 1995 ва бошқалар.

E.V. Rtveladze va A.X. Saidov jahon miqyosida Temur tarixini o'rganilganlik darajasini aniqlash uchun izlanishlar olib borib «Amir Temur dunyo fani ko'zgasida» nomli bibliografik tadqiqotni chop etdilar¹. Undagi malumotlarga ko'ra, Amir Temurga bag'ishlab yaratilgan jiddiy asarlar soni Evropa tillarida 700 dan ziyod, Sharq tillarida esa 900 dan ko'pdir. Ularda Amir Temur shaxsi, saltanatning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hayotiga turli baholar berilgan². Asrlar osha Amir Temur goh qattiqqo'l va zulmkor, goh adolatli va talabchan hukmdor sifatida talqin etib kelingan. Bu kabi baholarning paydo bo'lishiga Amir Temur davridan ko'plab ijobiy yoki salbiy munosabatda yozib qoldirilgan manbalar sabab bo'lgan. Nizomiddin Shomiy, Sharafiddin Ali Yazdiy kabi mualliflar Amir Temurning davlatni adolatli boshqargani, uning xalq va davlat manfaatlari yo'lida sa'yi harakatlar qilgani va boshqa xislatlarini yozgan bo'lsalar, Ibn Arabshoh «Temur tarixida taqdir ajoyibotlari» nomli asarida Amir Temurga ko'proq salbiy jihatdan baholar berib o'tgan.

Mustabid sho'ro davrida K.Mars, F.Engels va V.I.Leninning asarlari barcha tadqiqotlarga asos bo'lib xizmat qilar, ulardan iqtiboslar keltirilar hamda shunga monand qarashlar rivojlantirilar edi. «Dohiy»lar tomonidan yaratilgan «sinfiylik»

¹ Ртвеладзе Э.В., Саидов А.Х. Амир Темур в зеркале мировой науки. - Тошкент: Издательский дом Мир экономики и права, 1999. - 352 с.

² Грановский Т.Н. Сочинения. М., 1866. Часть I.; Ўша муаллиф. Тимур / Полное собрание сочинений. - СПб., 1905. Т. I. - С.341-359; Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. СПб., 1898. Ч. I.; Ўша муаллиф. Народное движение в Самарканде 1365 года / Записки Восточного отделения русского археологического общества. - СПб., 1907. Т. XVII. - С. 01-019; Ўша муаллиф. О погребении Тимура // Записки Восточного отделения Русского археологического общества. - Пгр., 1916. Т. XXVII. - С.1-32; Ўша муаллиф. Географический очерк Мавераннахра / Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. Соч. - М., 1963. Т. I.; Ўша муаллиф. Бартольд В.В. Улугбек и его время // Бартольд В.В. Соч. - М., 1964. Т. II. Ч. 2. - С.25-174; Абдураимов М.А. Обзор литературы посвященной Тимуру и тимуридам, изданной в Узбекистане в 60-х годах // История СССР. - Москва, 1973. - № 5. - С. 47-51; Ўша муаллиф. Темур ва Тўхтамиш. - Тошкент: Адабиёт ва санъат, 2000; Якубовский А.Ю. Самарканд при Тимуре и тимуридах. Очерк. - Л., 1933; Ўша муаллиф. Государство Тимура / История Узбекской ССР - Т., 1955. Т. I. кн 1. - С. 313-334; Греков Б.Д., Якубовский А.Ю. Золотая Орда и ее падение. - М.-Л., 1950 ва бошқалар ² Ртвеладзе Э.В., Саидов А.Х. Амир Темур в зеркале мировой науки. - Тошкент: Издательский дом Мир экономики и права, 1999. - 352 с.

² Грановский Т.Н. Сочинения. М., 1866. Часть I.; Ўша муаллиф. □Тимур□ / Полное собрание сочинений. - СПб., 1905. Т. I. - С.341-359; Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. СПб., 1898. Ч. I.; Ўша муаллиф. Народное движение в Самарканде 1365 года / Записки Восточного отделения русского археологического общества. - СПб., 1907. Т. XVII. - С. 01-019; Ўша муаллиф. О погребении Тимура // Записки Восточного отделения Русского археологического общества. - Пгр., 1916. Т. XXVII. - С.1-32; Ўша муаллиф. Географический очерк Мавераннахра / Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. Соч. - М., 1963. Т. I.; Ўша муаллиф. Бартольд В.В. Улугбек и его время

nazariyasi ham Amir Temurni “ekspluatator”, “ezuvchi”, “bosqinchi”, “kallakesar” sifatida talqin etishni taqozo etar edi.

Bu borada g’arb olimlarining Amir Temur saltanati haqidagi ancha xolis tadqiqotlarini alohida ta’kidlab o’tish joiz.

Ular orasida Fransiya Evropa temurshunosligining yirik markazlaridan biriga aylanib borayotganligini alohida ta’kidlash joiz. Bu yerda “Temuriylar davri tarixi va sanatini o’rganish va fransuz-o’zbek madaniy aloqalari Uyushmasi¹” faoliyat yuritmoqda. Bu uyushmaning va Fransiya chop etilayotgan “La Timuride” jurnalining faoliyatiga L. Keren rahbarlik qilmoqda. Ushbu jurnalda Amir Temur va temuriylar davri tarixiga oid qator ilmiy ishlar muntazam ravishda elon qilib borilmoqda².

Ular ichida Lyusen Keren tomonidan yaratilgan asarlar alohida ahamiyatga ega³. Bu olim ko’plab tadqiqotlarida Amir Temurning tarixdagi buyuk xizmatlari, uning davlatida adolat va qonun ustuvorlik qilganligi, «rahbar bo’lishdek tug’ma, ammo aqlga sig’maydigan tabiiy va sinoatli xislat sohibi»⁴ ekanligini manbalardagi malumotlar, tarixiy faktlar orqali ochib bergan. Uning tadqiqoti ilmiy ommabop xarakterga ega.

G’arbda salmoqli izlanishlar olib borgan olimlardan biri Xilda Xukxemdir. U Amir Temurning shaxsi va faoliyatini ancha xolisona tadqiq etib⁵ bu mavzuni to’laqonli ochib berishga o’z hissasini qo’shdi.

¹ Керен Л., Саидов А. Амир Темур ва Франция. - Тошкент: Адолат, 1996. - Б.15.

² Beaupertuis - Bressand F. L’art des jardins a son apogee ou splendeur des jardins de Samarkand // La Temuride. -Paris, 1990. - № 4. - Pp.7-8; Ўша муаллиф. Festivites timurides // La Temuride. - Paris, 1996. - № 16. Pp.2-3; Jardins Timurides // La Temuride. - Paris, 1991. - №5.- P.10; Szuppe M. Le Khorassan et l’Fsia centrale aux XIV-XVIe siecles: aspects de l’unite culturelle et politique // La Timuride. - Paris, 1995. - № 14. - Pp.8-15;

³ Kehren L. Tamerlan, le Seigneur de fer, Neuchatel, 1978. - 260 p; Ўша муаллиф. Tamerlan. Paris: Payot, 1980; Ўша муаллиф. Tamerlan et Byzance // La Timuride. - Paris, 1994. - № 13. - Pp. 3-6; Керен Л. Амир Темур салтанати. Француз тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи Б. Эрматов. - Тошкент: Маънавият, 1999. - 224 б. ва бошқалар.

⁴ Керен Л. Амир Темур салтанати... - Б. 169-170.

⁵ Hookham H. Timurlaine the conqueror. - London, 1962; Хукхэм Х. Властитель семи созвездий / Перевод с английского Г.Хидоятова. - Тошкент: Адолат, 1995. - 320 с.

Xilda Xukxem asosan Amir Temur faoliyatini umumiy tarzda yoritgan bo'lib, uning ishida Amir Temurning agrar masalalari alohida mavzu sifatida tadqiq etilmagan.

Yurtimizda ham Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyatini xolis o'rganish va yoritishga mustaqillik katta omil bo'lib xizmat qildi.

O'tgan yillar davomida yurtimizda Amir Temur va uning davri haqida qator ilmiy ishlar yoqlandi.

Mustaqilligimizning dastlabki yillarida Halim Boboev Amir Temur va temuriylar davridagi siyosiy - huquqiy talimotlar tarixini tadqiq etdi¹. U o'z tadqiqotida davlatni idora qilish tadbirlari, kengashlari, vazirlar va amirlarni joy-joyiga qo'yish, mamlakatni idora qilish, sipoh, Amir Temurning qarashlari, iqtisodiy masalalar va boshqalarga to'xtalib o'tgan. H. Boboev asosan mavzuning huquqiy asoslarini ochib berishga intilgan, bizning tadqiqot esa ijtimoiy-iqtisodiy yo'nalishda olib borilgan va har ikki ishda qo'yilgan masalalar ham bir-biridan farq qiladi.

Tarixchi olimlar orasida Azamat Ziyo «O'zbek davlatchiligi tarixi» kitobining «O'zbek davlatchiligi Amir Temur va temuriylar davrida» deb nomlangan to'rtinchi bobida Amir Temur saltanatidagi yer egaligi va uning turlariga to'xtalib o'tgan². Tadqiqotchi Amir Temurning markazlashgan davlat qurishi davriga oid tarixiy jarayonlarni qisman tahlil etgan.

Bulardan tashqari O'zFA Sharqshunoslik institutining B. Ahmedov, A. O'rinboev, D. Yusupova, A. Ahmedov, U.Uvatov, O.Bo'riev, B. Mannonov kabi ko'plab olimlari institut fondida, chet el kutubxona va arxivlarida saqlanayotgan Amir Temur davriga oid birlamchi manbalarni o'zbek va rus tillariga o'girish bilan birgalikda keng ko'lamli ilmiy tadqiqotlar olib bordilar va noyob malumotlarni ilmiy muomalaga kiritdilar.

¹ Бобоев Х. Б. Ўзбекистонда XIV-XVI асрларда сиёсий ва ҳуқуқий таълимотлар: Юрид.фан. докт. ... дисс. – Т.: ТДЮИ, 1993. - 48 б.

² Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. Энг қадимги даврдан Россия босқинига қадар. - Тошкент: Шарқ, 2000. - 368 б.

Mustaqillik yillarida olimlar tomonidan Amir Temur va uning faoliyatiga bag'ishlab qator salmoqli ilmiy tadqiqotlar yaratildi va katta ishlar olib borilmoqda¹. Bu ishlar orasida "Amir Temur jahon tarixida" deb nomlangan yirik fundamental tadqiqotni ham alohida takidlab o'tish joiz. Bu tadqiqotda Amir Temur davri ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotiga oid qimmatli tahlillar berilgan. Jumladan, "Davlat boshqaruvi" deb nomlangan bo'limida yer egaligi, irigatsiya tarmoqlarining obodonlashtirilishi, soliq tizimiga oid malumotlar bor.² Vazirlar Mahkamasining 1998- yil 25 -avgustdagi farmoyishi bilan bu ulkan tadqiqot to'ldirildi va 2001- yilda qayta nashr etildi³.

O'rta Osiyo sohibkorlarining eng qadimgi sug'orish manbalari va hudud aholisining sug'orish ishlari haqidagi ilk ma'lumotlar qadim davrga mansub bo'lib, Qadimgi Yunoniston va Qadimgi Rim tarixchilari Arrian, Kvint Kursiy Ruf, Strabon, Gerodot, Ktesiy va boshqa mualliflar tomonidan yozib qoldirilgan⁴.

Taniqli olimlar M.I.Yo'ldoshev, Ya.G'.G'ulomov va A.Juvonmardievlar tomonidan yaratilgan ilmiy tadqiqot adabiyotlarida, O'rta Osiyoning qadimdan to XX asr boshlarigacha bo'lgan yer egaligi, sug'orish manbalari va tarixiga oid ma'lumotlar tarixiy manbalar va arxiv materiallari asosida keng yoritib berilgan⁵.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi. Mazkur tadqiqot Amir Temur saltanati davlatchilik tarixining iqtisodiy asoslarini, yer egaligi, chorvachiligi,

¹Амир Темур жаҳон тарихида. Иш раҳбари проф. С. С. Саидқосимов. - Тошкент: Шарқ, 1996; Аҳмедов Б. Амир Темурни ёд этиб. - Т., 1996; Амир Темур ва унинг дунё тарихида тутган ўрни. - Тошкент: Фан, 1996; Бобоев Х. Б. Амир Темур ва унинг қарашлари. - Тошкент: Адолат, 1992; Бўриев О. Амир Темур даврида Мовароуннаҳр ва Мўғулистон муносабатлари // Шарқшунослик. - Тошкент, 1996. - №7.- Б.37-44; Бўриев О. Темурийлар даври ёзма манбаларида Марказий Осиё. - Тошкент: Ўзбекистон, 1997; Керен Л., Саидов А. Амир Темур ва Франция. ... ва бошқалар.

² Давлат бошқаруви Академиясию Амир Темур жаҳон тарихида ... - Б. 64-69.

³ Амир Темур жаҳон тарихида. Тўлдирилган ва қайта ишланган иккинчи нашри. -Тошкент: „Шарқ“, 2001. 304 б

⁴ Арриан Флавий. Поход Александра. Пер. М. Е. Сергеевко. - М-Л., 1962. - 384 с.; Квинт Курций Руф. История Александра Македонского. Пер. и примеч. под ред. В. С. Соколова. - М.: МГУ, 1963. - 478 с.; Страбон. География в семнадцати книгах. Пер. статья и ком. Г. А. Стратановского. - Л.: Наука, 1964. - 943 с.; Геродот. История в девяти книгах. Пер. и примеч. Г. А. Стратановского. - Л.: Наука, 1972. - 600 с.; Средняя Азия в известиях античного историка Ктесия. Пер. и примеч. И. В. Пьянкова. - Душанбе.: Дониш., 1975.

⁵ Йўлдошев М.И. Хива хонлигида феодал ер эгаллиги ва давлат тузилиши. - Тошкент., 1959. - 350 б; Фуломов Я.Ф. Хоразмнинг суғорилиш тарихидан. - Т.: Фан. 1959. - 249 б; Жувонмардиев А. XVI-XIX асрларда Фарғонада ер-сув масаласига доир. - Т.: Фан, 1965. - 301 б.

dehqonchiligi, suv inshootlari obodonchiligini hamda yerdan olinadigan soliqlarni yaxlit xolda ochib beruvchi dastlabki ilmiy ishlardan biridir. Unda avval tadqiqotchilar tomonidan bajarilgan ishlardan quyidagi farqli jixatlar mavjud:

Birinchidan, bitiruv malakaviy ishida ko'tarilgan barcha mavzularning ayrim jixatlari avval tadqiqotchilar tomonidan qisman o'rganilgan, ammo davlat boshqaruvining iqtisodiy asoslari, ularning davlatchilik taraqqiyotiga ko'rsatgan ta'siri, aloxida mavzu sifatida taxlil etilmagan. Tadqiqotchi bitiruv malakaviy ishini yozishda ana shu jixatlarga e'tibor qaratdi.

Ikkinchidan, avvalgi tadqiqotlarda Amir Temur shaxsi, uning axloqiy fazilatlariga qisman to'xtalib o'tilgan, ammo bu ishda esa ulardan farqli ravishda mavzu iqtisodiy islohotlar sifatida taxlil etildi.

Uchinchidan, Amir Temur davlatni yer egaligi munosabatlari o'rta asr boshqaruv an'analari'gi asoslangan xolda boshqarganligi tadqiqotchilar tomonidan avval tavsiflab o'tilgan bo'lsa-da, uning o'ziga xos xususiyatlari, jumladan, davlatni yer egaligi shakllarini yangicha boshqaruv tanxo shaklidan ijodiy foydalanilgani, davlatchilik taraqqiyotiga ko'rsatgan ta'siri ilk bor taxlil etildi.

Shuningdek, dehqonchilik taraqqiyotiga turtki bergan omillar, Amir Temurning ushbu soxaga davlat siyosati darajasida yondashganligi, natijada oddiy aholining turmush sharoiti rivojlanganligi haqida dastlabki taxlillar berib o'tildi.

To'rtinchidan, olimlar Amir Temur saltanatida xayot kechirgan ijtimoiy tabaqalar va ularning mavqei xaqida to'xtalib o'tgan bo'lsalar xam bu tadqiqotda ijtimoiy soxa tizimlashtirilgan va kengaytirilgan xolda ochib berildi.

Beshinchidan, fanda Amir Temur davridagi yerga egalik qilish shakllari haqida ba'zi tadqiqotlar olib borilgan bo'lsa ham bu mavzu to'laqonli ochilmay qolgan. Ushbu bitiruv malakaviy ishida yerga egalik qilish shakllari va ular o'rtasidagi farqlar to'laqonli ravishda ochib berildi.

Oltinchidan, Amr temur va temuriylar davridagi obodonchiliklar memorchilik, bog'dorchilik haqida yozilgan ammo suv inshootlari tiklanishiga ham alohida etibor berilib, suv inshootlarining qay darajadalik holati to'liq aks etmagan.

- o'rganilgan mavzu mustaqil O'zbekiston Respublikasida ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlar va tarixiy haqiqatni tiklash borasida qo'yilayotgan talablarga mos ravishda va uning extiyojlaridan kelib chiqqan holda hal etildi;

- Amir Temur va Temuriylarning asrlar mobaynida yerdan foydalanish soxasida qo'lga kiritgan yutuqlari, bu soxadagi boy tajribalari XIV-XV asr misolida, dalillar asosida yoritib o'tildi;

- Amir Temur va Temuriylar davridagi sun'iy sug'orish sohasidagi yutuqlar, yangidan barpo etilgan sug'orish inshootlari va uning dehqonchilikdagi ahamiyati ko'rsatib o'tildi;

- Temuriylar davrida ayrim mintaqalarning ma'lum qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi bo'yicha ixtisoslashuvi, bu borada erishilgan yutuqlar ko'rsatib o'tildi;

- Temuriylar davrida amalda bo'lgan soliq tizimi, qishloq xo'jalik soxasidagi soliq turlari va ularning to'lanish tartiblari haqidagi ma'lumotlar umumlashtirildi.

Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishida ilk bor Temuriylar davrining sug'orish tizimi va sug'orish inshootlari, ular bilan bog'liq davlat siyosati, boshqaruvi hamda soliq siyosati yoritildi. Tadqiqotda keltirilgan malumotlar ilmiy asosga ega bo'lib, undan o'lkaning XIV – XV asrlardagi qishloq va xalq xo'jaligi tarixiga oid o'quv qo'llanmalar, darsliklar yaratishda, oliy o'quv yurtlari tarix fakultetlari bakalavrlari va magistrarlari uchun maxsus kurslar tashkil etishda foydalanish mumkun.

Bitiruv Malakaviy ishida jamlangan ma'lumotlar, xulosalar va umumlashtirishlar Temuriylar davridagi yer-suv munosabatlari borasida to'plangan tarixiy tajribalar tarixini atroflicha va xolisona o'rganishga imkon beradi. Bitiruv Malakaviy ishining nazariy xulosalaridan temuriylar davri ijtimoiy-iqtisodiy hayoti va ishlab chiqarish munosabatlari tarixini atroflicha o'rganishda, shuningdek, O'rta

Osiyoda sun'iy sug'orish taraqqiyoti, irrigatsiya inshootlari qurilishi tarixini o'rganishda foydalanish mumkin. Ayni paytda, ishda jamlangan ma'lumotlardan Temuriylar davridagi yer-suv munosabatlari tarixi bo'yicha kitob va monografiyalar, O'zbekistonning yangi tarixidan darslik va o'quv qo'llanmalar tayyorlashda foydalanish mumkin. Bitiruv malakaviy ishda jamlangan ma'lumotlar asosida oliy o'quv yurtlarida, akademik listey va kasb-xunar kollejlari da Temur va Temuriylar davri tarixi bo'yicha maxsus kurslar tashkil etish mumkin.

Mavzuning nazariy metodologik asosi. Mavzuni yoritish jarayonida tarixiy yondashuv va qiyosiy tahlil, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I. A. Karimov asarlarida ilgari surilgan Vatan tarixini manbalar asosida haqqoniy o'rganish, xolislik va tarixiylik tamoyillariga asosiy etibor qaratildi. Tadqiqot jarayonida muammoni yangi tarixiy tafakkurning konseptual nuqtai-nazaridan idrok etishga, tarixiy voqealar xarakterini ularning real mazmuni asosida, hozirgi zamon tarix fani talablari kontekstida ochib berishga asosiy etibor qaratildi. Bitiruv Malakaviy ishida mustaqil O'zbekiston Respublikasi milliy istiqloq mafkurasining ustuvor maqsad va vazifalari g'oyaviy asos qilib olindi. Bu ishimizda o'rganilayotgan muammoni to'g'ri xal etishda ilmiy bilishning xolislik, tarixiylik, tizimlilik va rivojlanish kabi prinsiplariga amal qilindi.

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimovning asarlarida, ma'ruza va nutqlarida, davlat va hukumat farmon-qarorlarida ilgari surilgan metodologik, ilmiy-nazariy, ma'naviy-mafkuraviy xarakterdagi fikr-g'oyalar, dasturiy-konseptual ko'rsatmalar tadqiqot ishida nazariy-metodologik asos bo'lib xizmat qildi.

I BOB AMIR TEMUR SALTANATIDA AGRAR ISLOHOTLAR.

I.1. Amir Temur saltanatida yer egaligi va yerdan foydalanish fo'rmalari.

Amir Temur o'zi yashagan feodal zamonning farzandi edi va u bu zamon jamiyati qobig'idan chetga chiqib keta olmaydi, keta olmas ham edi. Sohibqiron nomi bilan Temur buyuk saltanatga asos soladi va uni ulug' amir sifatida boshqaradi. Hech

qachon u o'zini barpo etgan davlatning «qonuniy» xoni deb e'lon qilmaydi, xolbuki bunga xech kim to'sqinlik qila olmas ham edi. Chunki u kelib chiqishi, nasl-nasabi bilan chingiziylar sulolasiga mansub emas edi.

Temur davlatining tuzilishi yetarli darajada o'rganilmagan. Tarixiy manbalarda ko'rsatilishicha, viloyat va tumanlarda hokimiyat markaziy xukumat yoki ulus xukmdorlari tomonidan tayinlangan mansabdor (dorug'a)lar qo'lida bo'lgan. Markaziy xukumatni asosan uch bosh davlat muassasasi: Devoni oliy (oliy ijroiya organi), Devoni mol (moliya ishlari boshqarmasi) va Devoni tovochi (harbiy ishlar boshqarmasi) idora qilgan. Din va shariat bilan bog'liq bo'lgan masalalar, shuningdek, sud ishlari qozi va shayxulislom qo'lida bo'lgan. Qaysi vazir soflik to'g'rilik bilan vazirlik ishiga kirishib, davlatning moliya ishlarini diyonat, savob bilan, nafs buzqlik qilmay, omonatga xiyonat etmay ba-jarar ekan, unday vazirni eng oliy martabalarga yetkazsinlar. Qaysi vazir buzqlik qilib, yomonlik yo'li bilan mamlakat ishlarini yurgizar ekan, ko'p o'tmay unday saltanatdan xayru barakat ko'tariladi».

Sohibqiron davrida yerga egalik qilishning beshta asosiy ko'rinishi bo'lgan: Suyurg'ol yerlar. Bu yerlarning egalari har qanday soliqlardan ozod edilar. Ular yer egasi sifatida dehqonlarni ishlatib, yer solig'i — xiroj olganlar. Tarxon yerlar. Xususiy mulk bo'lgan bu yerlar odamlarga biron-bir alohida xizmatlari uchun berilgan. Ushr yerlar. Sayyid va xulsalarga mansub bu yerlarning egalari olgan daromadlarining o'ndan bir qismini davlatga to'laganlar. Vaqf yerlar — masjid va madrasalar, xonaqoh va mozorlarga qarashli yerlardir. Askarlarga va ularning boshliqlariga ajratib beriladigan yerlar mavjud bo'lgan. Amir devonida yer ishlari, soliqlar, boj yig'ish, mirshablik yumushlari bilan shug'ullanuvchi vazir bo'lgan. Oliy-himmat sohibqiron o'z xalqiga muruvvatli bo'lib, bemavrid, bo'lar-bo'lmasga mol-xiroj kabi soliqlar solishga qarshi bo'lgan va xalqni bir necha marta yillab soliqlar to'lashdan ozod qilib yuborgan.

Amir temur buyuk saltanat barpo etgan, ammo ayni zamonda ulug' hukmdorning o'zi ana shu buyuk saltanatning parchalanish jarayonin ham hali tiriklik davridayoq boshlab bergan edi. Chunki Temurnig o'zi Farg'onani hisobga olmaganda Movorounnahrni hech kimga berasdan qolgan hududlarni to'rt qism – mulkka bo'lgan. Tarixchi olim Bo'riboy Ahmedovning yozishicha, Xuroson Jurjon, Mozandaron, Seiston (markazi xirof) Shohruhga , G'arbiy Eron , Ozarbayjon ,Iroq va Araniston (marazi Shyeroz) Umarshayhga , Avg'oniston va Shimoliy Hindiston (markazi G'azna keyinchalik Balx) Pirmuhammadga suyurg'ol (in'om) qilib berilgan edi. Bu ulus mulklar nomigagina markaziy hoimyatga bo'ysunar edi. Aslida esa o'ziga xos mustaqil davlat bo'lib olgan. Suyurg'ol qilib berilgan yer mulklar Oliy hukumatning farmoni bilan Avloddan – avlodga o'tavyergan. Bu hol buyuk saltanatning bo'laklarga bo'linib ketganligining asosiy sababidir. Ana shu ma'noda Temur salanati shaklan buyuk va qudratli bo'lib k'rinsa-da, aslida uning iqtisodiy asoslari mustahkam asosga qurilmagan edi. ¹

Temur va temuriylar davrida davlat yerlarini in'om qilish – suyurg'ol etib berish keng tus oldi. Amir Temur ajdodlari suyurg'ol asosida Kesh (Shaxrisabx) viloyatida faoliyat olib borganlar. O'rta asr mualliflardan biri quyidagi fikrni bildiradi. “Oliy xazratlarining baxtli tug'ilishi, ikki baxtli yulduz soxibi Amir Temur Ko'ragoniy joyi Keshda edi va uning avlodlari o'sha viloyatda merosxo'rlik xuquqiga ega edilar”. Suyurg'ol, tom ma'noda xayr-exson, yerni xadya etish, imtiyozni anglatadi va xarbiy xizmatni o'tash bilan shartlangan yerni in'om qilish turlaridan biri xisoblanadi. Suyurg'ol egasi soliq daxlsixligidan foydalanib suyurg'olga qarashli yerlardan o'z foydasiga o'lpon olgan. Suyurg'ol egasining iqto'dordan farqi shundaki, u ma'muriy-sud daxlsixligiga xam ega bo'lgan. Keyinchalik suyurg'ol vorislikni xam anglatadigan bo'ldi. Suyurg'ol Amir Temurgacha xam mavjud edi. Temur davrida esa u keng rivojlandi. Xarbiy yurishlar tufayli Amir Temur xukmronligiga juda katta

¹ Shamsutdinov R. T Vatan tarxi 1- tom. – T.: „ Sharq ” , 2016, 408- bet.

xududlar o'tdi. Egallangan viloyatlarni amir suyurg'ol asosida boshqarishga asosan o'z o'g'illari va nevaralarig'i berar edi. Soliq daxlsixligi bu o'rinda xarbiy va davlat xizmati bilan shartlangan.

Suyurg'ol Amir Temur urug'-aymog'idan bo'lmagan ayrim amirlarga xam berilishi mumkin edi. Ular asosan chig'atoy urug'idan, keyinchalik esa unga jangsiz taslim bo'lgan yirik xukmdorlarga berilgan. Amir Temur davrida suyurg'ol so'zi umuman in'om etish ma'nosida xam ishlatilgan.

Vaqf yerlar diniy muassasalar xuzurida vujudga kelgan edi. Bunday yerlar O'rta Osiyoga islom dinining yoyilishi bilan bog'liq bo'lib, ular shariat qonun-qoidalari asosida asta-sekin ko'paya bordi. Hukmdorlar, beklar va qisman oddiy axoli ruxoniylarning ta'siri ostida o'z yerlarining bir qismini madrasa, masjid va mozorlarga xadya qilardi.

O'troqlashgan xalq yashaydigan shaxarlarda deyarli xar bir masjid, madrasa va boshqa diniy muassasalar shunday vaqf mulkka ega edi. Bunday yerlar ko'pincha mexnatkash dexqonlarga ayrim shartlar bilan ijaraga berilardi. Undan kelgan daromaddan ruxoniylar va madrasalardagi talabalar foydalanar edilar.

Soliq to'lanadigan davlat yerlari bilan mulkiy yerlarni vaqf qilib berishdan oldin albatta hukmdordan ruxsat olinardi. Ularni ulamolar shariat qonunlari asosida yorliqlar bilan tasdiqlab berardilar. Vaqfnomalar avloddan-avlodga meros bo'lib qolishi mumkin edi. Xar bir hukmdor taxtga chiqqanida bunday yerlarni tekshiruvdan o'tkazardi. Amir Temur va uning temuriylar davrida yerning ma'lum qismi vaqf etib berilgan. Vaqf yerlar diniy, xayriya, madrasa, o'quv va boshqa muassasalar foydasiga tashkil etilgan. Mexnatkash axoli o'rtasida esa vaqfkor yerlar nomi bilan yuritilgan. Amir Temur va temuriylar davrida Movarounnaxr va Xurosonda juda ko'p masjid, madrasa, maqbara va shifoxonalar barpo qilinib, juda katta dexqonchilik yerlari vaqf qilingan. Odatda, yer va suvdan tashqari ko'plab do'kon, korxona, tegirmon, objuvoz, bozor, karvonsaroylar xam vaqf qilinib, ulardan tushgan daromad masjid, madrasa, shifoxona va xonaqoxlarning ta'miri, jixozi, mutavalli, mudarris,

tabib va talabalarga beriladigan nafaqalar xamda langarxona (musofirxona) va shifoxonalarni kundalik xarajatlari uchun sarf etilgan. Nazariy jixatdan vaqf yerlar daxlsiz sanalsa xam amalda bu qoidaga xar doim rioya etilmagan. Vaqf yerlaridan soliq olib odatda ijaraga berilgan. Ijarador mutavalli bilan tuzilgan shartnomaga ko'ra, mazkur yerdan ma'lum vaqt mobaynida soliq olish xuquqiga ega bo'lgan. Asosan vaqf yerlar, aniqrog'i ulardan soliq yig'ish uch yilgacha ijaraga berish sharti bilan dexqonlarga topshirilgan. Oxirgi shart shariatga asoslangan bo'lib, unga ko'ra biror kishi tomonidan uch yildan ortiq to'xtovsiz ishlov berilgan yer uning shaxsiy mulki bo'lib qolishi mumkin bo'lgan. Shu bilan birga sunniy ruxoniylar roli ushbu davrda (XIV asr oxiri – XV asr boshlari) yuqori bo'lgan. Shuning uchun vaqf mulkiga egalik qilishni davlat miqyosida yuqori lavozimi egallagan a'yonlar vakillari xal qilgan. Mulkni egallashni ochiq emas, ijara ko'rinishida amalga oshirishgan. Ba'zan, oxir-oqibat vaqf mulkining bir qismi boshqa bir kuchli xukmdor qo'liga o'tib qolishi mumkin bo'lgan.

XV asr tarixiy asarlaridagi ozgina ma'lumotlarni xujjat dalillari bilan solishtirib, dexqonlar to'lagan asosiy soliqlar va yig'imlar, shuningdek, ular bajargan majburiyatlar xaqida tasavvur xosil qilish mumknn.

XV asrda Xurosonda va Movarounnaxrda dexqonlarni quyidagi to'rtta kategoriyaga bo'lish mumknn: 1) davlat yerlarida yashovchi dexqonlar; 2) xususiy yer egalarining yerlarida ishlovchi dexqonlar; 3) o'z yeriga ega bo'lgan dexqonlar; 4) vaqf yerlarida yashovchi dexqonlar.¹

Askarlarga va askarlarning raxbarlarig'i beriladigan yerlar feodal yer egaligining asosiy toifalaridan birining davlat yerlari tashkil etgan. Uning daromadlari asosan qo'shinni ta'minlashga ketgan. Bu yerlar xukmron sulola a'zolari va amirlarining Soxibqiron oldidagi xizmatlari, xarbiy xizmatlari, xarbiy yurishlarda qatnashish, chegarani qo'riqlash uchun mukofatlashning asosiy manbai bo'lib xizmat qildi.

¹ Shamsutdinov R. Vatan tarxi 1- tom. – T.: „ Sharq ”, 2016, 409- bet.

Dexqonlar mamlakat axolisining asosiy qismini tashkil etar edi. Barcha soliq to'laydigan axoli kabi ular "ra'iyat" atamasini olgan, biroq mulkiy munosabatqa turli ijtimoiy qatlamga ajralar edi. Chorakorlik bilan ijaraga olish asosida yerga qayta ishlov berish ular ko'pchiligining asosiy daromad manbai xisoblangan. Yer soxiblarining ta'minlangan ko'p qismini dexqon deb ajratish tarqalgan. Mamlakat obodonchiligi va kishilar xotirjamligini dexqonlar ushlab turar edi. Xaqiqatdan, jamiyat asosini o'sha paytda amlokдор-dexqonlar tashkil etgan. Bu davrda dexqonchilik yerlarining ma'lum bir kichikroq qismi qishloq axolisining umumiy tasarrufida bo'lgan. Bunday yerlar qishloq to'plari yoki jamoalarining mulki xisoblangan. Shubxasiz, bunday shaklqagi jamoa yerlari, mulkchilikning qadimiy turlaridan bo'lib, ular ko'proq suvga tanqis tog' oldi xududlariga birmuncha keng tarqalgan edi. Bunday jamoa mulkchiligi, odatda, kam suvli tog' jilg'alarining oqimini jamg'arish yoki yer osti suvlarini yer yuziga chiqarish uchun qishloq jamoalarining kuchi bilan barpo etilgan o'ta mashaqqatli va murakkab suv inshootlari – qulfatli xovuzlar (mayda suv omborlari) korizlar vositasida o'zlashtirilgan yerlarda vujudga kelgan.

Dehqonchilik asosan sug'oriladigan hosildor yerlarda va lalmi dehqonchilik uchun qulay bo'lgan adirlar, tog' va tog' oldi hududlarida rivojlangan edi. Yerdan mehnat qiladigan kishilarning asosiy qismi kambag'al qishloq aholisi bo'lib, ular o'z yer maydoniga ega bo'lmasdan, ijaraga olingan yerda dehqonchilik qilib kun kechirgan.

Manbalarda keltirilishicha, bu davrda bug'doyning o'n xil navi, arpa, qo'noq, jo'xori, mosh, no'xat, makkajo'xori, loviya, kunjut, beda, suli, sabzavot va poliz ekinlari yetishtirilgan. Texnik ekinlardan sholi, paxta va boshqalar ekilgan. Sabzavotchilik, polizchilik, bog'dorchilik va ipakchilik yuksak taraqqiy etgan.

Dehqonchilik uchun qulay bo'lgan hosildor yer maydonlari, bepoyon yaylovlar xon va uning yaqinlari, yirik harbiy-ma'muriy amaldorlarga qarashli edi. Harbiy-

ma'muriy amaldorlarga va yirik din peshvolariga davlat oldidagi xizmatlari uchun beriladigan bunday yerlarda asosan yersiz kambag'al dehqonlar yollanib ishlaganlar.

Siyosiy parokandalik, muttaasil davom etib turgan o'zaro ichki kurashlar va fitnalar halqni iqtisodiy jihatdan og'ir ahvolga solib qo'yish bilan birga mamlakatdagi iqtisodiy holatni ham inqirozga olib keldi. Shuningdek, tashqi hujumlar, talon-tarojlar natijasida dehqonchilik vohalari harob holga kelib qoldi, savdo karvonlarini talash hollari ko'payib ketdi. Bu esa o'z navbatida tashqi savdo aloqalarining cheklanishiga olib keldi.

Sug'oriladigan yerlarda O'rta Osiyo mintaqasi uchun an'anaviy bo'lgan bug'doy, arpa, jo'xori, loviya, mosh, sholi, paxta, sabzavot va poliz ekinlari, dashti yerlarida va tog' oldi xudularidagi lalmi yerlarda bug'doy, arpa, kunjut, tarvuz, qovun va boshqalar ekildi, dehqonchilik qilingan. Manbalarda qayd etilishicha, o'zaro urushlar dehqonchilik taraqqiyotini bir muncha orqaga surib turgan bo'lsada, tinchlik davrlarida dehqonchilik orqasida yerlardan ancha yuqori hosil olingan. Dehqonchilik mahsulotlari ichki talabni to'la qondirib, tashqi bozorga ham chiqarilgan. Bu mamlakat iqtisodining butunlay inqirozga tushishidan saqlab turgan asosiy omil edi.

Sug'oriladigan yerlar jamoa mulki bo'lib, ularga qabila yoki urug'lar egalik qilganlar. Bora-bora ana shu jamoa mulklari chegarasida yerga egalikning yangi ko'rinishlari – yerga shaxsiy mulk sifatida egalik qilishning formalari yuzaga kelgan. Markaziy Osiyo hududida yerga egalik qilishning quyidagi ko'rinishlari (turlari) mavjud edi:

Sug'oriladigan dehqonchilik maqsadlariga xizmat qilgan sug'orish inshootlarining asosiy qismi mahalliy qurilish materiallari – tuproq, tosh, yog'och, qamish, shox-shabbalar yordamida oddiy tuzilishda qilib, boshqacha aytganda, tez va arzon qurilgan, sug'orish kanallarining o'zanlari tuproqda (grunt) kovlangan. Bu narsa o'z navbatida inshootlarning suv ta'siriga chidamsiz bo'lishiga sabab bo'lgan. Pirovard natijada suvdan foydalanuvchilar – dehqonlar deyarli butun yil davomida

sugʻorish tarmoqlarida qurish, taʼmirlash, tozalash (kanal va ariqlarni qumloyqalardan) ishlari bilan band boʻlishga majbur boʻlganlar. Aniq, boʻlmagan maʼlumotlarga koʻra, har bir yeri bor dehqon sugʻorish ishlariga yiliga hashar yoʻli bilan kamida 10– ish kuni sarf qilgan. Bu miqdorni maʼlum darajada tasdiqlash uchun xorazmlik dehqonlarning bizdan uncha olis boʻlmagan 30–40-yillarda yirik va xoʻjaliklararo kanallar tarmoqlarida kishi boshiga yili 40–50 m³ tozalash ishlarini bajarganliklarini koʻrsatib oʻtmoqchimiz. Bundan tashqari, koʻplab taʼmirlash va qayta qurish ishlarini bajarganlar. Bunda sermashaqqat va koʻp kishilar qatnashadigan ommaviy ishlar oʻz-oʻzidan bajarilib qolmaydi, albatta. Kimlardir ularni avvaldan rejalashtirish, kerakli materiallar va ishchi kuchlarini tashkil qilishi, ularning ishiga rahbarlik qilish va nazorat oʻrnatish kerak boʻladi.

Qabila yoki urugʻ aʼzolari dehqonchilik, keyinchalik sugʻoriladigan dehqonchilik bilan oʻtroq, xolda shugʻullana boshlagan uzoq zamonlardan boshlab amalda sugʻorish ishlarini tashkil qilish, uni boshqarish sohasida yangidan-yangi ehtiyojlar tugʻila boshlagani aniq, va bu fikrga shubha qilmasa ham boʻladi.

Yerga egalik qilishning, u qanday atalishidan qatʼiy-nazar, ikki shakli – jamoa mulki va xususiy mulk koʻrinishidagi shakllari mavjud boʻlgan. Ularni asosan 3 koʻrinishda taʼriflash. mumkin: oʻz yerida oʻz kuchi bilan dehqonchilik qilish dehqon xoʻjaliklari koʻrinishida, chetdan ish kuchi yollab (xaq toʻlash evaziga) dehqonchilikdilik va ortiqcha yoki tasarrufida boʻlgan yerlarni boshqalarga maʼlum shart-sharoitlarda foydalanishga berish (pudrat usuli) orqali dehqonchilik qilish. Oʻz-oʻzidan koʻrinib turibdiki, sugʻoriladigan dehqonchilik bilan shugʻullangan kishilar yerga nisbatan, undan olinadigan, foydaga nisbatan turlicha munosabatlarda boʻlganlar va tegishli haq-huquqlarga ega boʻlganlar. Shunday qilib, koʻpchilikning ishtiroki va mablagʻi bilan barpo etilgan sugʻorish inshootlari va ular vositasida oʻzlashtirilgan yerlar jamoa mulkiga aylangan.

Bu davrda bosh xukmdor tomonidan yirik mulk egalariga biron-xizmatlari uchun tarxon yorligʻi berish keng tarqali. Tarxonlik yorligʻini olgan mulkdorlar

xujjatga asosan barcha soliq, to'lov va majburiyatlardan ozod etilgan. Tarxonlik yorlig'i, odatda, amirlar, beklar, saroy amaldorlari, sayyidlar va boshqa yuqori tabaqa vakillariga berilgan. Bunday yorliqni olgan mulkdor ismiga "tarxon" so'zi qo'shib ishlatilgan.

Tarxonlarga berilgan katta imtiyozlar keyinchalik ushbu alohida qatlamning boyishi va kuchayishiga olib keldi. Ularning ayrimlari bir necha ming sonli xarbiy qo'shinga ega bo'lib oldi. Shundan bir qismi urug'-aymog'chilik jixatidan xukmdor sulola bilan bog'liq bo'lib, asosan XV asr oxirida Movarounnaxr siyosiy xayotida xal qiluvchi ro'l o'ynadi.

Tarxon yorlig'i inom qilinmaydi. Tarxon yorlig'i mol – mulkka egalik qiluvchi kishilarga beriladi. Shuning uchun tarxonni suyurg'ol bilan adshtirib yubormaslik kerak.

Tarxon yorlig'i berilgandan so'ng dehqonlardan soliqlarni davlat xazinachisi emas , balki yorliq egasi olardi. Tarxonli bo'lib olgan shaxs allaqachonlardan beri rasm bo'lib kelganidek to'qqiz gunohi uchun javobgar bo'lishdan halos bo'lar edi. Tarxon o'ninchi gunoh qilgan kunidan boshlabgina javobgarlikka tortilar edi.

I.2 Amir Temur saltanatida agrar islohotlar.

Amir Temur davlatni boshqarishda mamlakat mustaqilligiga, el-yurt

osoyishtaligiga, uni obod etishga katta axamiyat berdilar. Bu davrda mo'g'ullarning muttasil bosqinlari oqibatida vayronaga aylangan Samarqand, Buxoro. Termiz, Marv, Banokat (Shoxruxiya) kabi qadimiy shaxarlar, bir qancha katta-kichik qal'a va istexkomlar qayta tiklandi. Uzoq-yaqin viloyatlar va tumanlarda yangi shaxarlar, mustaxkam qo'rg'on-u qal'alar qad ko'tardi. Markaziy shaxarlar va ularning atrofida ko'rkam mamuriy, ma'rifiy, jamoat binolari. suv inshootlari qurilib, bog'- rog'lar barpo etildi.

Mamlakat obodonchiligini yuksaltirish, aholning iqtisodiy turmush tarzini yaxshilash va mo'l-ko'lchilikni ta'minlashga muttasil urushlardan boshi chiqmagan Sohibqiron qanday qilib erishdi, degan qonuniy savol tug'ilishi tabiiydir, albatta. Bunga ulur Amir pirlari Zayniddin Abubakr Toyobodiy uqtirgan saltanat ishlaridagi to'rt narsaga: 1. Kengash; 2. Mashvaratu maslahat; 3. Mustahkam qaror, tadbirkorlik va xushyorlik; 4. Ehtiyotkorlikka amal qilganligi tufayli erishgan. Buni biz Amir Temurning «Barcha ishlarimning to'qqiz ulushini kengash, tadbir va mashvarat, qolgan bir ulushini esa qilich bilan bajo keltirdim», deb aytgan ibratomuz so'zlaridan ham bilsak bo'ladi. Rus olimi D. Logofet Temur davridagi tuzumga quyidagicha baxo beradi: «Evropada Konstitutsiya haqida tushunchaga ham ega bo'lishmagan bir davrda ana shu Temur davlatida Konstitutsion qonunlar majmuasi - Tuzuk mavjud bo'lgan va amal qilgan»¹. Davlatni boshqarish va idora qilish, barcha soxada adolat, insof, diyonat va imon amriga quloq solib maslaxat, mashvarat va kengash asosida ish yuritishda ulug' bobokalonimizdan o'rgansak va ibrat olsak nur ustiga a'lo nur bo'lur edi.

Amir Temur shaxsining ulug'ligi uning Chingizxondan keyin hududining kattaligi jihatidan dunyoda ikkinchi buyuk saltanatga asos solganligida emas, yoki o'zining Sohibqironlik faoliyati davomida 30 marta yurishlar qilib, biror marta bo'lsa-da yengilmaganligida ham emas uning mardligi va qahramonligi kabi g'oyatda muhim fazilatlarida ham emas, albatta. Bu fazilat va omillar ham so'zsiz Amir Temur

¹ Somon yo'li. Tarihiy adabiy majmua. T.: "Kamalak", 1992. 72 -bet

shaxsini ulug'lashda va uni jahonga mashhur qilishda katta o'rin tutgan. Ammo Amir Temurning dunyoda eng ulug' va buyuk shaxs, davlat arbobi, mashhur sarkarda, fan va madaniyat homiysi sifatida nom qozonishiga sabab bo'lgan fazilatlar «Temur tuzuklari» da o'z ifodasini topgan. Bu fazilatlar:

Biirinchisi va eng asosiysi Islom dini, Qur'oni Karim va uning g'oyasiga cheksiz sadoqatda. «...har yerda va har vaqt Islom dinini quvvatladim», deydi u. «Yana tajribamda ko'rib bildimki, davlat agar dinu oyin asosida qurulmas ekan, to'ra-tuzukka bog'lanmas ekan, unday saltanatning shukuhi, qudrati va tartibi yo'qoladi. Bunday saltanat yalang'och odamga o'hshardi, uni ko'rgan har kimsa, nazarini olib qochadi. Yoxud kasu nokas tap tortmay kirib chiqadigan tomsiz, eshigi-to'sig'i yo'q uyga o'xshaydi. Shuning uchun ham men o'z saltanatim binosini dini islom, to'ra va tuzuk asosida mustahkamladim. Amir Temur yana davom ettiradi: «Qaysi mamlakatda dindan qaytishlik (ilxod) va zindiklik kuchaysa va u diyorning aholisi, sipoxu raiyat turli maslakka kirib ittifoqlari buzilsa, u mamlakatning halokati yaqindir»³.

Ikkinchisi, hayotda, davlat ishlarini boshqarishda odillik, adolat va haqiqatning ustivorligini ta'minlash uchun kurash. Oddiy xalq manfaatlarini himoya qilish, jabrdiydalarga madadkorlik ig'vogar va tuhmatchilarga ishonmaslikda: «...Adolat va insof bilan tangrining yaratgan bandalarini o'zimdan rozi qildim. Gunohkorga ham, begunohga ham rahm qilib haqqoniyat yuzasidan hukm chiqardim... Fuqaro va qo'l ostimdagilarga rahmdillik qildim, sipohiylarga in'omlar ulashdim. Zolimlardan mazlumlar haqqini oldim... Buzuqi va og'zi shaloq g'iybatchi odamlarni majlisimga yo'latmadim, so'zlariga amal qilmadim. Biror kimsaga tuxmatu g'iybat qilsalar, quloq solmadim»¹.

Uchiichidan, davlatni boshqarish, idora qilish ishlarini halol, nasl-nasabli, asil, vijdonli, aql-farosatli, sabr-toqatli kishilarga topshirish. Temur davlat arboblari bag'ri keng, og'ir, vazmin, odamlarga nisbatan kek saqlamaydigan, kechirimli va g'oyatda

³ Temur tuzuklari. –T.: „Sharq“ 2005. 53,57,92- bet

¹ Temur tuzuklari. –T.: „Sharq“ 2005. 54-55- bet

hush ahloqlik fazilatlariga ega bo'lishi kerak, deb hisoblar va bu fazilat-larni juda-juda qadrlar edi.

Amir Temurning fikricha, har bir tojdor hukmdor o'z davlatining tayanchi bo'lgan ijtimoiy qatlamlarga tayanishi lozim.

To'rtinchidan, yuksak insoniy ahloqiy fazilatlarini ulug'lash, noinsoniy, noahloqiy va tubanlik ko'rinishlariga qarshi shafqatsiz kurash. Amir Temur yozadiki: «...hozirgi damgacha o'tgan sultonlarning qonunlari va turish-tur-mushlarini donolardan so'rab-surishtirdim. Har qaysilarining. yo'l-yo'riqlari, turish-turmushlari qilish-qilmishlari, aytgan gaplarini xotiramda saqladim va yaxshi ahloqlari, ma'qul sifatlaridan mamuna olib, unga amal qildim»².

Amir Temur o'zi barpo etgan bu ulkan saltanatning shon-shuxrati uchun uning markaziy qismi — Movarounnaxrni, ayniqsa Samarqand shaxrini obodonlashtirishga aloxida axamiyat berdi. U zabt etilgan mamlakatlardan, moddiy boyliklardan tashqari, moxir xunarmandu, musavvir-naqqoshlarni, me'moru binokorlarni. muxandis olimlarni Movarounnaxrga olib keldi.

Shuni aloxida ta'kidlash kerakki, Amir Temurning xar bir zafarli va sevinchli voqeani muxtasam me'morchilik obidasini barpo etish bilan nishonlash odati bor edi. Shu maqsadda Xindistondan olib kelingan moxir binokorlar, Xorazm, Isfaxon, Sheroz, Xalab va Sharqning boshqa ko'pgina shaxarlarining mashxur usta xunarmandlari mamlakatda go'zal inshootlar bino qildilar.

Amir Temur faqat Movarounnahrdagina emas, balki Xuroson, Eron, Kavkaz va boshqa viloyatlarda ham dehqonchilik yerlari suv bilan to'la taminlandi.

Buhoroning qadimgi sug'oriladigan yerlari bo'ylab olib boriladigan arxeologik tadqiqotlardan malum bo'lishicha, mo'g'ullar bosqini oqibatida butunlay vayron etilgan voha suv xo'jaligi XV asrga kelib to'la tiklandi. Uning dehqonchilik yer maydoni birmuncha kengayib, vohaning g'arbiy chegarasi xatto, Urganjiy dashti tomon ichkariga 5-6 km kirib bordi. Ulug'bek hukmronlik qilgan davrda (1409-1449)

² O'sha joyda

Buhoro vohasining janubi-sharqiy sarhadiga yondoshgan Somonjuq dashtiga suv chiqarilib, yangi yerlar o'zlashtirildi.

Amir Temurning farmoni bilan Murg'ob vohasida qazdirilgan qator sug'orish kanallari, Qobul yaqinidagi Joyinav daxasining Bodon anxori yoki Kavkazdagi Baylakon mavzeidagi Barlos arig'i shular jumlasidandir. Amir Temur Murg'ob daryosidan kanallar qazdirib, Marv vohasini obod qilish to'g'risida farmon beradi. Sarhadlarda va davlat mamurlarining xar biri alohida kanal qazishga boshchilik qiladilar. 1404- yili Kavkazdagi Baylakon mavzeida Amir Temur farmoni bilan Araks daryosidan chiqarilgan barlos kanali zamonasining yirik sug'orish inshootlari sifatida diqqatga sazovordir. Uning uzunligi 10 farsax (60-70 km) bo'lgan. Kanal bo'ylab kemalar bemalol qatnay olgan.

Amir Temur xox Samarqandda bo'lsin, xox safarda biror joyda ozgina to'xtab qolsa, albatta bir xayrli ishni amalga oshirishni rejalashtiradi, deb yozadi tarixchi¹. Eng muximi, u bunday ishlarga o'z qo'shinlari, navkarlari va a'yonlarini safarbar qilgan. Chunonchi, Xurosonda yurish chog'ida (1381- yili) Murg'ob vodiysida to'xtab, qo'shinlari va sarkardalarig'i ushbu daryodan ariqlar chiqarishni topshiradi. Bu ish tez orada nihoyasiga yetib, o'sha joylar obod bo'ladi. Xofiz Abru "Geografiya" asarida bu ariqlarning nomlarini sanab o'tgan: Dilkusho arig'i, Ganjra von arig'i, Darband, Ganjxona arig'i, Umar Tobon arig'i, Oq Buro arig'i, Qutlug' Temur arig'i, Shayx Abu Sa'd arig'i, Shayx Ali arig'i, Davlat- shox Jondor arig'i, Gulboron arig'i, Qutlug' xotun arig'i, Xasan Jondor arig'i, Kelachi arig'i, Mengli xoja arig'i, Ali Malik arig'i. Aksariy ariqlarning nomlari, ularni qazishga boshchilik qilganlar ismiga qo'yilgan edi.² Shunga o'xshash misolni Amir Temurning yetti yillik yurishi voqealari bayoniga xam etibor qaratga bo'ladi. Amir Temur Rumga yurishi oldidan 804- yili (1401) Qorabog'da qishlab turgan chog'ida Aras (Araks) daryosidan suv oladigan bitta ariq qazdiradi. Mazkur obodonchilik ishlari xaqida Sharafuddin Ali Yazdiy quyidagi tafsilotlarni bayon qilgan: "O'tgan podshoxlardan ba'zilar Aras

¹ Xalqaro Amir Temur Jamg'armasi. Amir Temur saboqlari. –T.: „G'ofur G'ulom“ 1999. 16-b

² O'sha asar. 16-b

atrofidagi cho'llarda ul daryodan katta ariq, qazdirgan edilar, zamonlar o'tishi bilan u ariq, buzilib, butunlay ko'milib, tekislanib ketgan. Ov chog'i baxtli Soxibqironning ko'zi unga tushib kolgan edi, podshoxona ximmat o'sha ariqni qaytadan qazishni taqozo etdi va maqsad imzosi uchun Aras daryosidan o'tib ul ariqni qazishga buyurdi. Uning oliy ko'satmasiga ko'ra, tavochilar uni amirlar va askarlarga taqsimlab berdilar. Bir oyga yaqin muddat ichida uzunligi farsaxdan ko'prok, bo'lgan ariq, shunday bir tarzda qazilgan ediki, unda kemalar xam yuraolar edi. Ul ariqning Aras daryosidan boshlangan to'xtash joyi Qishki jangchi¹ degan mavze' erur, oxiri esa Sarxapil degan joydadir. Ul ariqqa Barlos arig'i, degan nom berildi, chiqarilgan suvning sharofatidan qancha tegirmonlar va bog'istonlar obod bo'ldi". Nizomiddi Shomiyning yozishicha, ariqning suvi G'ilon va Mozandaron (Kaspiy) dengizigacha yetib borgan ekan. Xazrat Soxibqiron yurish oxirida, 1403- yili Qorabog'da yana ma'lum muddat qishlov uchun to'xtaydi va katta bir xayrli ishni amalga oshiradi, ya'ni Baylakon shaxrini tiklashga buyuradi. Aras naxri kanorasidan bir ariq, chiqarsinlar, u Baylakondan o'tsin, shu joyda yashovchi odamlar, ekinzorlar va qishloqlar istemolidan ortig'i Ko'r naxriga borib quyilsin; ariqning uzunligi olti farsax kengligi taxminan o'n gaz bo'lsin. Borib lashkarning barcha yosoqiylarini shu ishga mashg'ul qildilar. Davlat amirlarini ularga ishboshi qilib tayinladilar. Suvsiz bir oy muddatda forig' bo'ldilar. Abadiyatga pok niyati barakoti bilan shaxar va viloyat o'sha naxrdan ma'mur bo'ldi"². Tarixchi Xofizi Abru asarida bu xaqida ayrim qo'shimcha va aniqliklar xam berilgan: "Aras daryosi qirg'og'idan bir ariq, qazishga kirishsinlar va u Baylakondan o'tsin, uning obodonchiligi, aholisining ekinzorlari, qishloqlaridan ortgan suvi Ko'r daryosiga borib quyilsin", degan bo'ysunish shart bo'lgan buyruq berildi. Ariqning uzunligi olti farsax, eni o'n gaz, Samarqand gazi bilan, u o'n besh mashxur Iroq va Xuroson gaziga tengdir; chuqurligi ba'zi joylarda to'rt gaz, ayrim qismlarida besh, olti, yetti, sakkiz gazni tashkil etadi. Lekin aksariy

¹Nizomiddin Shomiy . Zafarnoma.-T.: „ O'zbekiston" . 1996. 318-6er.

² Nizomiddin Shomiy . Zafarnoma.-T.: „ O'zbekiston" . 1996. 374-6er.

qismida to'rt gaz edi, undan kamroq, — to ikki gazgacha joylari xam bor edi. Kaminaga qutyori xoxishyon, uni ilmiy kitoblarda mizon ul-arz ataydilar, vositasida kuzatib borish va zaruridan ortiqcha ish qilmasligi uchun qaysi joyni qancha chuqurlikda qazishni aniqlash topshirilgan edi. G'olib lashkar yosoqiylar guruxini ul ish bilan Maftun etdi; davlat amirlarin esa, ularni ishga buyurib turish uchun tayinladi. Bir yil davomida qilinadigan o'shanday katta ishni bir oy muddat ichida tugatib, suvni ariqqa ochdilar. Abadiylikka tutash davlatning sharofati va onxazratning pok niyati tufayli shaxar va viloyat ul o'sha suvdan obod bo'ldi"¹. Xokimiyatga Amir Temurning kelishi va markazlashgan davlat barpo etilishi bilan qishloq xo'jaligini rivojlantirishga intilish kuchayadi, Temur va uning vorislaridan ayrimlari, jumladan Mirzo Ulug'bek otliq qo'shin o'tish chog'ida dexqonlarning yerlarini toptash va ekinlar yakson bo'lishidan va raiyyatlarni talon-tarojdan saqlash uchun qator choralar ko'rishdi. Tarixchilar xabar berishicha, Temur farmoyishiga muvofiq, ekinzorlar yaqiniga o'tov o'rnatish qo'shin raxbarlariga ta'qiqlangan. Biroq ayrim xollarda yem-xashak yo'q paytda, xukmdor roziligi bilan, yosh ekin va xatto yetilgan xosil otlar va mollarni boqish uchun foydalanilishi mumkin edi. Ispan elchisi Klavixo shunday xollardan birini bayon etadi: “Olampanox bug'doylar (em-xashak uchun) o'rib olinsin, deya buyurdi. Uning ortidan kelayotgan qo'shin esa yo'lida uchragan xamma narsani taladi...”

Akademik V.V. Bartold Amir Temurning ziddiyatli faoliyatini shunday tavsiflaydi: ‘Temur ayni bir paytda beshafqat vayronakor va jonboz quruvchi edi; uning tomonidan ajoyib bog'-rog'lari bilan muxtasham binolar qurdirdi, shaxar va qishloqlar tiklandi, sug'orish tizimlari barpo etildi va tuzatildi; rasmiy tarixning ifoda etishicha, umuman ekin yetishtirish mumkin bo'lgan yer bekor yotmagan’. Uning o'g'li Shoxrux va nabirasi Ulug'bek bu siyosatni davom ettirishga xarakat qildi. Abdurazzoq Samarqandiy zamindor dexqonlarni davlat amaldorlari va qo'shin boshliqlari tomonidan zo'ravonlik va adolatsizliklardan asrash necha bor taqdim etilgan xukmdorlarning farmoyishlarini keltiradi. Dexqonchilikni tiklash va

rivojlantirish tadbirlarini ko'rarkan, Temur O'rta Osiyo axolisining kundalik xayoti sun'iy sug'orish bilan yaqindan bog'liqligini yaxshi tushunardi. Xuddi shu tarzda, Temur farmoyishiga ko'ra yerlarni sug'orishga bog'liq, ishlar amalga oshirildi va Angor tumani tashkil etildi. Uning ko'rsatmasi bilan Murg'ob vodiysida muxim ishlar bajarildi. Eski Angor kanalining tog' maydoni o'yib qazilgani sezilarli ro'l o'ynadi. Boshqa sug'orish inshootlarining o'tkazilishi xam Temur faoliyati bilan bog'liq; bo'ldi. G'iyosiddin Alining xabar berishicha, misol uchun, Temur Xindiston yurishidan qaytayotganda Qobulda to'xtab o'tadi va "tungi vaqtini Bodom deb ataladigan Joyi Nav quyiladigan joyda o'tkazadi. Mazkur Bodom xoqonning kuch-g'ayrati tufayli barpo etilgan katta kanaldir". Temur davrida Samarqand va Shaxrisabz shaxarlarini oqar suv bilan ta'minlash ancha yaxshilandi, deyarli xar bir xovlidan ariq, o'tgan edi. Daryolardan yiroqdagi joylarda sug'orish korizlar yordamida amalga oshirildi. Bog' va tomorqalarning bir qismi suvni qadimdagi kabi, masalan, Nasaf (Qarshi) shaxridagidek quduqlardan olgan, shuningdek bu yerda xavo namligidan xam oqilona foydalanishgan. O'sha yillardagi bitilgan asarlardan birida yozilishicha, toshkentliklar oqar suvdan tejamkorona va unumli foydalanishgan.

Xolbuki, Temurning sug'orishni yaxshilash borasidagi g'amxo'rliги bosib olingan va qaram bo'lgan xamma viloyatlarda xam birdek emas edi. Samarqand bilan raqobatdagi shaxarlar uning xomiyligidan foydalanmagan. Temur qishloq xo'jaligiga katta ahamiyat berdi. Xukmdor uni davlat kundalik xayoti daromadining manbaigina deb baxolamasdi. Qishloq xo'jaligi maxsulotlari qo'shinni ta'minlash uchun xam zarur edi. Movarounnaxrdan sharqdagi tumanlarda ekin maydonlarini kengaytirish xaqidagi Amir Temur farmoni bu borada yaxshi misol bo'la oladi. U umri oxirida Xitoyga yurishga tayyorlana turib o'z qo'shini xarakatlanadigan yo'l yoqasidagi qo'riq yerlarga ekin ekishni buyurganligini esga olingan. Temur Movarounnaxrda ba'zi yangi tur o'simliklarning tarqalishiga ko'mak berdi. Aftidan ilk bor aynan Temur xukmronligi chog'ida zig'ir ekish pastroq bo'ldi. Klavixo xabar berishicha, Temur yurishi natijasida Movarounnaxrda nasha va zig'ir ekila boshlagan. Mazkur

ekinlar “ilgari bu yerda sira ekilmagan”, deb yozadi Rui Gonsales de Klavixo.¹ Temur Samarqandni boshqa shaxarlar orasida birinchi o’ringa qo’yib, dunyodagi mashxur shaxarlar – Bag’dod, Sultoniya va Sheroz nomi bilan ataluvchi qishloqlar qurishga farmoyish beradi. Shuningdek, bir kvadrat kilometrga yaqin xajmdagi ulkan bog’lar barpo etiladi. Ularda juda xilma-xil daraxt va gullar yetishtirilgan.

Temur buyrug’i bilan bunday bog’larning barpo etilishi faqat davomli xarbiy yurishlardan so’ng dam olish va ko’ngil ochish joyi yaratish istagi bilangina bog’liq emas edi. Ularning paydo bo’lishida siyosiy sabablar xam muxim edi. Bu yerda turli davlatlardan kelgan elchilar qabul qilinar, ular yurtiga qaytgach, Temur saltanatining go’zalligi va qudrati xaqida xabarlar tarqatardi.

Yangi bog’larning paydo bo’lishi turli xil, shu jumladan bu paytgacha ekilmagan o’simliklar turlarini yetishtirish, yirik xajmdagi bog’ maydonlarini rejalashtirish bo’yicha ixtisoslashish va ko’nikmalarning kengayishi bilan qo’shib olib borishdiki, bular mamlakatning iqtisodiy rivojiga ijobiy ta’sir ko’rsatdi.

Temur xukmi bilan Samarqand atrofida qurilgan qishloq va bog’lar davlat poytaxtining unga tutashib ketgan joylar bilan iqtisodiy markaz sifatidagi axamiyatini kuchaytirdi.

Temuriylar qo’shinida jangda oldga siljish va xarakat qilish uchun otlardan keng foydalanilgan. Ko’p sonli otliq Temur qo’shinining asosiy turi bo’lgan. Xujum chog’ida bu qo’shin katta manyovr qilish xususiyati va kuchli zarba berish qobiliyatiga ega edi. Jang maydonidan yolg’ondakam chekinib, Temurning otliq qo’shini odatda dushmanga yashirib qo’yilgan otliqlari bilan to’satdan kuchli zarba bergan.

Shoshilinch xabar yetkazish uchun tez chopishga moslangan otlardan foydalanilgan. Xar bir bekatda maxsus kishilar otlarga qaragan. Otlarni asosan ko’chmanchi va yarim ko’chmanchi axoli yetkazib turgan, biroq o’troq axolining ko’pchiligida anchagina otlar bo’lgan.

¹ Temur va Ulug’bek davri tarihi.-T.: „Qomuslar bosh tahririyati.”1996. 117-b

Temurga tegishli yilqi ayrim amirlarga parvarish uchun berilgan. U o'z yaqinlariga bu ishni yuklab, ayni chog'da otlar omonligi va yaxshi parvarish etilayotganini qat'iy kuzatib borgan.¹

Yuk tashishda asosan tuyalardan foydalanilgan, ular xarbiy yurishlarda xam asqotgan. Temur Xindistonga yurishida raqibining qudratli qo'shinini yengishda jangovar fillarga qarshi ustiga yonayotgan shox-shabba bog'langan tuyalarni qo'yib yuborgan.

Chorvachilik go'sht, yog', sut, jun va teri bergan. U ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi axoli xayotida muxim o'rin tutgan.

Temur qo'l ostidagi (keyinchalik temuriylar) yerning bir qismi ko'chmanchi - chorvadorlar tomonidan band edi. Temur xukmdorligi davridan boshlab nisbatan "chig'atoy"lar ko'prok ta'sir ko'rsatdi. Ular imtiyozli sharoitda bo'lib mamlakatning asosiy xarbiy tayanchi bo'lgan. Zamondoshlari ta'rificha yosh erkak-chig'atoylar o'q- yoy otishga moxir, jasur jangchilar edi. Yer va yaylovdan foydalaiishlari uchun ko'chmanchi kabilalar markaziy xokimiyat tomonidan belgilangan miqdorda davlatga ma'lum chorvani berishi zarur edi. Yuqorida eslatilgan to'rt yuz o'tovdagi chorvadorlar yiliga davlat xazinasiga uch ming tuya va 15 ming qo'y berishlari kerak bo'lgan. "Tijon voxasiga yaqinlashganda daryo kesib o'tgan, ishlov berilgan ko'pgina yerlar va shox xarbiylari bo'lgan chig'atoylarning ko'plab chodirlari ko'rindi". Bu vodiya ancha chorva va yetarli o't-o'lan bor edi va ular o'z chorvasini tamg'alashgandi. Juda ko'p chorva, tuya va ot mavjud edi.

Movarounnaxr qishloq axolisiga asosiy go'sht ko'chmanchilar chorvasidan yetkazilgan.

Umuman olganda ko'chmanchi axoli ijtimoiy munosabatda bir xil emas edi. Chigatoylar aloxida imtiyozga ega bo'lib urushda xal qiluvchi kuch sanalgan. Ular yaylovlar bo'ylab bemalol yurishlari mumkin bo'lgan va soliq yig'ishdan

¹ Temur va Ulug'bek davri tarihi.-T.:, Qomuslar bosh tahririyati." 1996. 117-b

ozod qilingan.

Temur xukmronligiga qarashli ko'chmanchi qabila vakillarining bir qismi uning xarbiy qo'shini tarkibiga kirgan. Xukmdorning ilk chaqiruvi bo'lishi bilanoq belgilangan joyga yetib kelishi va jangda qatnashishlari shart edi. Xarbiy xizmat uchun ular soliqdardan ozod qilinsa xam, aslida oddiy ko'chmanchilar bir qator majburiyatlarni bajarishlari kerak bo'lgan. Masalan, "Cho'l joydan o'tish kerak bo'lganda ko'chmanchilar o'z xisobidan mansabdor shaxs buyrug'iga muvofik Temur saroyiga ketayotgan elchilarga o'tovlardan oziq-ovqat, yem (otlar uchun) va suv yetkazib berishga majbur qilinardi, aslida ularning o'ziga xam qiyin edi".

Ko'chmanchilar odatda o'z lash-lushi, podasi, xotin va bola-chaqasi bilan yurishga chiqqan. "Urushga chiqqanda yoki joydan-joyga ko'chganda ular bor narsasini o'zlari bilan olar edi". Zamondoshlari ta'kidlashicha, odatiy ko'chmanchilar jangchilarni yo'lda qo'y, tuya va otlar bilan ta'minlagan.

Klavixo Temur bilan yurish ishlarni amalga oshirgan va ko'p janglarda g'olib chiqqan" qabila xususiyatini ifodalar ekan, shunday yozadi: "Ular mexnatsevar va (yaxshi) otliq, kamon otishga usta va jasur jangchidir. Agar mo'l-ko'l yegulik bo'lsa yeyishadi. Bo'lmasa nonsiz (faqat) go'sht va sut bilan qanoatlanishadi... Sovuq, jazirama, ochlik va tashnalikni boshqa xar qanday xalqqa nisbatan osonlikcha yengishadi".

"Va mana shu o'rdasi bilan birga, qovurilgan va qaynatilgan go'sht bilan savdo qiluvchi qassob xamda oshpazlari, shuningdek arpa sotuvchi boshqa odamlar va nonvoylar ko'chib yurishadi. Uning (Temurning) o'rdasida turli uquvli va usta odamlarni topish mumkin. Ular bari belgilangan ko'cha bo'yicha bo'lingan".

Amir Temur insoniyat tarixida yirik davlat arbobi va o'rta asrning yengilmas, betakror lashkarboshisi sifatida Markaziy Osiyo hududida yirik saltanat barpo qilib, o'z saltanati tarkibiga 27 ta davlatni birlashtirdi. U hamisha o'z davlat tizimini takomillashtirib borishni o'ylar, mo'g'ullardan farqli o'laroq boshqa o'lkalarni zabt

etishnigina emas, balki aksincha, u yerlarni idora qilish to'g'risida ham qayg'urar edi. Shu bilan birgalikda davlatni adolatli idora etishda soliq siyosatining o'rni beqiyos ekanligini yaxshi tushunar edi. Amir Temurning soliqlar masalasi bilan jiddiy shug'ullanganligini isbotlaydigan qator dalillar mavjud. Amir Temur soliq siyosatining asosiy yo'nalishlari uning farzandlariga siyosiy vasiyati bo'lmish «Temur tuzuklari» da ifodalangan bo'lib, uning soliq siyosati xususiyatlarini quyidagi fikrlari orqali ifodalashimiz mumkin: «Amr etdimki, raiyatdan mol-xiroj yig'ishda ularni og'ir ahvolga solib qo'yishdan yoki mamlakatni qashshoqlikka tushirib qo'yishdan saqlanish kerak. Negaki, raiyatni honavayron qilish (davlat) xazinasining kambag'allashishiga olib keladi. Xazinaning kamayib qolishi esa sipohning tarqalib ketishiga sabab bo'ladi. Sipohning tarqoqligi, o'z navbatida, saltanatning kuchsizlanishiga olib keladi» . Asarda soliqlarni hisoblash qoidalari ham ishlab chiqilgan: «Yana amr qildimki, xirojni ekindan olingan hosilga va yerning unumdorligiga qarab yig'sinlar. Chunonchi, doim uzluksiz ravishda koriz, buloq va daryo suvi bilan sug'oriladigan ekin yerlarini hisobga olsinlar va unday yerlardan olinadigan hosildan ikki hissasini raiyatga, bir hissasini oliy sarkorlik (saltanat xazinasini) uchun olsinlar. Lalmikor yerlarni esa, jariblarga bo'lsinlar, hisobga olingan bu yerlardan (soliq olishda) uchdan bir va to'rtidan bir qoidasiga amal qilsinlar» . Ushbu jumalardan ko'rishimiz mumkinki, soliq yerning lalmikor va sug'oriladigan qismlaridan alohida-alohida tartibda undirilgan. Bundan tashqari yangi yerlar o'zlashtirishni rag'batlantirish maqsadida soliq imtiyozlari ham belgilangan: «Yana amr etdimki, kimki biron sahroni obod qilsa, yoki koriz qursa, yo biron bog' ko'tarsa yoxud biron xarob bo'lib yotgan yerni obod qilsa, birinchi yili undan hech narsa olinmasin, ikkinchi yili raiyat o'z roziligi bilan berganini olsinlar, uchunchi yili esa oliq-soliq qonun-qoidasiga muvofiq xiroj yig'ilsin». Amir Temurning ushbu oqilona siyosati tufayli soliq to'lovchilarga soliq to'lash uchun qulay sharoit yaratilgan. Bundan tashqari mahsulot tarzidagi soliqni soliq puli bilan almashtirib turish mumkin bo'lgan: «Agar raiyat ro'yxatga olingan yerlaridan beriladigan soliqni naqd aqcha

bilan to'lashga rozi bo'lsa, naqd aqcha miqdorini sarkorning hissasi hisoblangan g'allaning mazkur davridagi narxiga muvofiq belgilasinlar».¹ Amir Temur olib borgan soliq siyosatining muhim xususiyatlari sifatida shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, u tomonidan zabt etilgan o'lkalarga nisbatan alohida soliq siyosati yuritilgan. «Agar yerlik fuqaro azaldan berib kelgan xiroj miqdoriga rozi bo'lsa, ularning roziligi bilan ish ko'rsinlar, aks holda (xirojni) tuzukka muvofiq yig'sinlar» . Amir Temur farmoyishiga binoan soliq undirish ishlari rahm-shavqatga asoslangan bo'lishi lozim: «Amr qildimki, hosil pishib yetilmasdan burun raiyatdan molu jihot olinmasin. Hosil yetilgach, hosilni uch bo'lib olsinlar. Agar raiyat soliq to'lovchi yubormasdan, soliqni o'zi keltirib bersa, u holda u yerga soliq to'plovchi yubormasinlar. Agarda oliq-soliq oluvchini yuborishga majbur bo'lsalar, ular soliqlarni buyruq berish va yaxshi so'z bilan olsinlar, kaltak arqon ishlatish, ishni urish-so'kishgacha olib bormasinlar. Ularni band etib, zanjir bilan kishanlamasinlar. Yana buyurdimki, xirojni raiyatdan kaltaklash va savalash yo'li bilan emas, balki ogohlantirish, qo'rqitish va tushuntirish yo'li bilan undirsinlar. Qaysi hokim hukmining ta'siri cho'p va kaltaklash ta'siridan kamroq bo'lsa, unday hokim hukumat yurgizishga yaroqsizdur» . Amir Temur yuritgan soliq siyosati o'z davriga nisbatan soliqqa tortishning ilg'or g'oyalarini o'zida ifodalay olgan. Soliqlarning davlatni mustahkamlashdagi ahamiyati hisobga olinishi bilan birgalikda, muhim xususiyati sifatida qayd etish lozimki, u soliq to'lashga layoqatli soliq to'lovchilar bo'lishini e'tirof etgan. Shu boisdan ham davlat va soliq to'lovchilar o'rtasida soliq munosabatlarini shakllantirishga e'tibor qaratadi. Vaholanki, bu boradagi muammolar hozirgi davlatchilik munosabatlari davrida ham mavjud bo'lib, bunga buyuk saltanat sohibi Amir Temur bundan VI-VII asr avval erishishga harakat qilgan. Shuningdek Amir Temurning yuqoridagi fikrlaridan ko'rishimiz mumkinki, soliq undirish soliq to'lovchilarning muayyan mol-mulkka ega bo'lganida, ya'ni hosil olganidan keyin undirilgan. Shuning bilan birgalikda soliqlarni

¹ Temur tuzuklari. –T.: „Sharq“ 2005. 98- bet

undirish xarajatlarini kamaytirishga ham harakat qilingan, ya'ni soliq to'lovchilar soliqni o'z vaqtida olib kelsalar soliq undiruvchi yuborish ta'qiqlangan. Soliq yig'ishda ko'proq tushuntirish, ogohlantirish va qo'rqitish kabi yo'llardan foydalanilgan. Amir Temur davrida mamlakat iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi muhim ahamiyatga ega hisoblangan. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini asosan yer egalari bo'lgan dehqonlar va yerga ishlov beruvchi ijarachilar amalga oshirganlar. Bu davrda asosan dehqonchilik bilan bog'liq bo'lgan xiroj va ushr soliqlari amal qilgan.

Amir Temur Markaziy Osiyo iqtisodini rivojlantirishga, fan va madaniyatni qanchalik ko'tarishga uringan bo'lmasin, shafqatsiz to'lqinlar u tashkil etgan buyuk saltanatni parchalanishiga, parokanda bo'lishiga olib keldi. Uning vafotidan so'ng avlodlari o'rtasida taxt uchun kurash uzoq davom etib, shahzodalar o'rtasida olib borilgan kurash o'lkaning moliya-soliq tizimiga ta'sir ko'rsatmay qolmadi. Ulug'bek davrida Samarqand yana ravnaq topdi. Bu davrda san'at va ilm-fan rivoji uchun shu qadar katta ishlar qilindiki, bu davrni «Samarqandning oltin davri» deb atay boshlashdi. U soliq siyosatida dehqonlardan olinadigan soliqlarni kamaytirdi va dehqonlar faravonligini o'stirishga imkon yaratdi. Tushumlar qisqarishining o'rnini esa tamg'a- xunarmand va savdogarlardan olinadigan yig'imni ko'paytirish hisobiga to'ldirdi. Amir Temur va temuriylar davrida bir qadar tartibli soliq tizimi amal qilgan. Amir Temur va temuriylar davridagi soliq siyosati, uning yuritilish tartibi, undirilishiga oid qonun-qoidalar, to'lovchilarga berilgan imtiyozlar, bosib olingan hududlar uchun Amir Temur tomonidan qo'llanilgan soliq islohotlari, yig'ilgan soliqlardan xarajatlarni moliyalashtirish uchun ishlatish me'yorlari avvalgi davrlar soliq islohotidan tubdan farq qilib, ularni to'liqroq o'rganish hozirgi kunda ham ahamiyatli bo'lib hisoblanadi.

II bob. Temuriylar davrida yer egaligi munosabatlari.

II.1. Temuriylar hukumronligi davrida agrar sohadagi o'zgarishlar.

Sohibqiron Amir Temur davrida asos solingan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar uning avlodlari davrida ham asosan davom ettiriladi. Albatta, amir, bek va sultonlar o'rtasida olib borilgan o'zaro urushlar o'lkaning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotiga salbiy ta'sir qiladi. Ammo ijtimoiy hayot to'htab qolgani yo'q Yerga egalik qilish avvalgidek: «mulki devoniy» — davlat yerlari; «mulk yerlari» — xususiy yerlar; «mulki vaqf» — vaqf yerlar va jamoa yerlari shaklida saqlangan. Temur davridagidek davlat yerlarini «suyurg'ol» qilib berish davom ettiriladi. «Suyurg'ol» yerlar oddiy bir qishloqdan tortib tuman, shahar va viloyatlargacha tashkil etgan. Bu yerlar odatda hukmron sulola avlodlari, yirik harbiy va davlat mansabdorlariga berilgan va u avloddan-avlodga meros bo'lib o'tgan. «Suyurg'ol» egasi o'z yerida amaldorlarni tayyorlash, soliqlar tizimini belgilash va ularni to'plash, gunohkorlarni jazolash masalalarini o'zi mustaqil xal qilgan.

Amir Temur vafotidan so'ng suyurg'ol qoidasi ma'muriy-soliq daxlsixligi va ushlab turishining vorislik mazmuni bo'lib qoldi. O'sha paytda oliy xukmdor o'z xoxish – istagiga ko'ra bir viloyat suyurg'olligini ikkinchisi bilan almashtirib yubora olar edi. Biroq bu Amir Temur kabi kuchli xukmdorlar tomonidangina amalga oshirilgan. Ayrim suyurg'ol egalari bir vaqtning o'zida tarxon yorliqlariga xam ega edi. Mazkur xollarda ushbu shaxslar qo'shimcha imtiyozlar olgan yoki shunday yorliqlar yer egasini davlat soliqlarini to'lashdan ozod qilgan.¹

Suyurg'ol yerlar xajmi, sharti hamda yer va yorliqqa ega shaxslarning tabaqasi jihatidan turlicha bo'lgan. Odatda, shahar yoki viloyatlardan tortib, to alohida qishloqqacha suyurg'ol shaklida inom etilgan. Butun shaxar yoki viloyat ko'pincha xukmron sulola namoyondalari yoki yirik harbiy va davlat mansabdorlariga berilgan. Suyurg'ol egasiga o'z suyurg'oli doirasidan amaldorlar tayinlash, soliq va turli to'lovlarni undirish hamda aybdorlarni jazolash xuquqi berilgan. Abdurazzoq Samarqandiyning yozishicha, Shohruh davrida Xorazm-

¹ Temur va Ulug'bek davri tarixi. –T.: „Qomuslar bosh tahririyati.” 1996. b- 118

Shohmalik; Farg'ona – Mirzo Ahmad; Tus, Mashhad, Obivard, Nisoni o'z ichiga olgan Xuroson – Boysunqur; Qobul, G'azna va Qandahor viloyatlari Mirzo Qaydu bahodirning suyurg'oli edi. Suyurg'ol yorlig'iga ega bo'lgan viloyat hukmdorlari markaziy hokimyatga faqat nomigagina qaram bo'lib, odatda, ular deyrli mustaqil edi. Suyurg'ol egalari tobeligini kuchaytirish maqsadida markaziy hokimyat bazan ular tasarrufidagi yer maydonlarini qisqartirar yoki ularning mamuriy va adliya jihatidan xaq – xuquqini cheklab qo'yar edi. Suyurg'ol egasi markaziy hokimyatga bo'ysunmagan taqdirda suyurg'ol huquqlaridan mahrum bo'lar va hokim uning viloyatini boshqa shaxsga berar edi. Bo'ysunmagani uchun Shoxrux 1414-yilda Mirzo Iskandarni, 1415-yilda esa Mirzo Boyqaroni suyurg'olidan mahrum qilgan. Temuriylar davrida maydoni jihatidan mayda va haq-xuquqi jihatidan ancha- muncha cheklangan suyurg'ol yerlari ham bo'lgan. Bunday mayda suyurg'ol yerlar, odatda, xizmat ko'rsatgan kichik mansabdagi xarbiylardan tortib oliy hukmdorning muntazam gvardiyasidagi xarbiylargacha berilgan. Zahiriddin Muhammad Boburning yozishicha , Xusayn Boyqaroning 14 minglik gvardiyasi va 40 minglik muntazam qo'shinining xar bir askariga 80 jarib , yani 40 tanobdan yer berilgan. Navkarlarga berilgan bu yerlardanham soliq , va to'lovlar olinmagan. ¹

Temuriylar davrida dehqonchilik maydonlarining ikkinchi kattagina qismi xususiy yerlardan iborat bo'lib, yirik mulkdorlarning katta yer maydonlari ham, mexnatkash ziroatchilarning mayda paykallari ham xususiy mulk qatoriga kirgan. Mulk yerlarining katta qismi ma'muriy, harbiy va diniy arboblarning tasarrufida bo'lgan.

Kata-katta yer uchastkalarni egallagan mulkdorlar yerlarini mayda-mayda uchastkalarga bo'lib, ularni dexqonlarga chorakorlik asosida ijaraga beradilar. Dexqon— chorakorning xosildan oladigan xissasi yer egasi yerdan tashqari qanday shaklda (urug'lik, omoch, xo'kiz) berganiga qarab belgilanar edi. Dexqon qanday yerda ishlashidan qat'iy nazar, soliqlarni to'lar va majburiyatlari o'tar edi.

Askarlarga va askarlarning rahbarlariga beriladigan yerlar feodal yer egaligining asosiy toifalaridan birini davlat yerlari tashkil etgan. Uning daromadlari asosan qo'shinni ta'minlashga ketgan. Bu yerlar xukmron sulola a'zolari va amirlarining Soxibqiron

¹ Muhammadjonov A. Temur va Temuriylar saltanati., - T.: „Qomuslar bosh taxririya“ 1994. B-91

oldidagi xizmatlari, xarbiy xizmatlari, xarbiy yurishlarda qatnashish, chegarani qo'riqlash uchun mukofatlashning asosiy manbai bo'lib xizmat qildi.

Dexqonlar mamlakat axolisining asosiy qismini tashkil etar edi. Barcha soliq to'laydigan axoli kabi ular "ra'iyat" atamasini olgan, biroq mulkiy munosabatda turli ijtimoiy qatlamga ajralar edi. Chorakorlik bilan ijaraga olish asosida yerga qayta ishlov berish ular ko'pchiligining asosiy daromad manbai xisoblangan. Yer soxiblarining ta'minlangan ko'p qismini dexqon deb ajratish tarqalgan. Abdurazzoq Samarqandiyning ta'kidlashicha, mamlakat obodonchiligi va kishilar xotirjamligini dexqonlar ushlab turar edi. Xaqiqatdan, jamiyat asosini o'sha paytda amlok-dexqonlar tashkil etgan. Bu davrda dexqonchilik yerlarining ma'lum bir kichikroq qismi qishloq axolisining umumiy tasarrufida bo'lgan. Bunday yerlar qishloq to'plari yoki jamoalarining mulki xisoblangan. Shubxasiz, bunday shakldagi jamoa yerlari, mulkchilikning qadimiy turlaridan bo'lib, ular ko'proq suvga tanqis tog' oldi xududlarida birmuncha keng tarqalgan edi.

Shariat qonun-qoidalari asosida amlok yerga ega bo'lgan xo'jayin 3 yil davomida yerdan foydalanmay uni tashlab qo'ysa, shu yerdan xosil olmaganini uchun xiroj solig'i to'lmas edi. Natijada amlok-dexqon yerga bo'lgan egalik xuquqini yo'qotar edi. Amaldorlar bu yerni egasiz yer xisoblab, uni shariat qonunlari asosida boshqa kishiga olib berar edilar. Davlat ixtiyoridagi qo'riq va bo'z yerlarga suv chiqarib o'zlashtirilgandan keyin, u yerlarga xam odamlar ko'chirilib, o'rnatilgan edi. Mana shu yangi amlok yerlarga joylashgan axoli xar yili yer ijarasi va xiroj solig'i to'lashi bilan bir qatorda, irrigastiya inshootlarig'i sarf qilinadigan pullarni xam ortig'i bilan xukmdorga to'lashga majbur edi. Amlok yer egalari shariat qonunlari asosida barcha soliqlarni to'lab, majburiyatlarni o'z vaqtida ijro etib borishlari bilan birga, bu joylarda uzoq yillar davomida o'tirib qolganliklari uchun xususiy mulkdor bo'lish xuquqini olishar edi. Yer egasi amlok yerlarni sotish, meros qilib qoldirish yoki in'om etish xuquqiga xam ega edi. Lekin uni sotib olgan kishi yana xiroj to'lab borishi shart edi. Shunday qilib, amlok

yerlar xam deyarli mulkiy yerlarga aylanib qolgan edi Chunki amlokдорlar davlatga ijara — xiroj to'lab turgan.

Mulkiy yerlar turli yo'llar bilan yuzaga kelardi. Masalan, suv chiqarib o'zlashtirilgan qo'riq va bo'z yerlar mulkiy yerlar bo'lib qolardi. Hukmdor tomonidan xarbiylarga, ruxoniylarga, xon avlodlariga, beklarga, amaldorlarga va boshqalarga in'om qilingan yerlar ham mulkiy yerlar sanalardi. Bu yerlar xukmdorning yorliqlari bilan qonunlashtirib berilardi. Mulkiy yer egalari bir qancha imtiyozlarga ega bo'lardi. Masalan, bunday yerlar soliqlardan ozod qilinardi. Mulkdor mulkiy yerni sotish, birovga xadya qilish yoki o'z avlodiga meros qilib qoldirish xuquqiga ega edi. Hukmdorlar davlat ixtiyoridagi bo'sh yotgan yerlarni o'zlashtirishni istagan kishilarga ajratib berish siyosatini tutardilar. Yangi o'zlashtirilgan yerlar dastlabki davrda xech qanday soliq to'lamas edilar.

O'rta asrlarda yana bir yer egaligining turi ushur yerlar bo'lib, ushur yerlar Sayyidlar va xo'jalarga mansub yerlardir.

XV asrda temuriylar davrida dunyoviy mulkdorlarninggina emas, balki ruxoniy mulkdorlarning xam yer-mulklari juda ko'payib, kattalashib ketdi. Abusaid zamonida yuqorida nomi aytilgan Xo'ja Axrorning qo'lida juda katta yer-suv to'plana boshlaydi. Sulton Axmad zamonida esa (1469—1494 yillar) u juda katta miqdorni tashkil qiladi. Bu yerlarning bir qismini uning muridlari sovga qiladilar, boshqa qismini o'zi sotib oladi, uchinchi qismini qarzdorlarning qarzi evaziga oladi. Umuman olganda, u har xil nayranglar qilib, temuriylar davlatida eng boy kishilardan biri bo'lib oladi.¹

«Rashaxot aynulxayot» kitobining muallifi As-Sofiy Navoiyning zamondoshi, buyuk shoir Abduraxmon Jomiyning so'zlaridan olib shuni xikoya qiladiki, Xo'ja Axrorning 1300 taga yaqin yer-mulki bo'lgan, bu mulklardan ba'zilar 3000 juft gov (bir juft ho'kiz qo'shib haydaladigan yer)ga barobar bo'lgan. Xo'ja Axror o'zining juda katta mulklaridan Sulton Axmadning xazinasiga faqat ushrning o'zidan (xosilning o'ndan bir qismi miqdoridagi soliq) katta Samarqand o'lchovida 80 ming man g'alla to'lagan.

¹ Axmedov B.O'zbeiston tarixi manbalari. T.: „O'qituvchi" 1991. b-72

Xo'ja Axror XV asrning 60—80-yillarida ruxoniylar va xokimiyat namoyandalari orasidagina emas, balki xalq ommasining ba'zi tabaqalari, asosan qishloq axolisi orasida g'oyat katta nufuzga ega bo'ldi. Bunga u kambag'allarning mayda- chuyda extiyojlarining qondirilishini xokimiyatdan iltimos qilish, o'zining boy xazinasidan turli xayr-exson ishlariga mablag'lar tarqatish yo'li bilan erishdi.

Movorounnaxr xokimlari turli yo'llar bilan Xo'ja Axrorning pinjiga kirishga xarakat qilardilar, Xo'ja Axror esa qishloq xokimlarining o'zaro nizo - janjallariga aksar aralashar va bu ishda ko'pdan-ko'p murid josuslari tufayli juda katta ishlar qilar edi. «Manokibi Xo'ja Axror» (Xo'ja Axror biografiyasi) ma'lumotlariga qaraganda, Xo'ja Axrorning butun yerlari ma'lum uchastkalarga bo'linib, ulardan xar qaysisiga boshqaruvchi tayinlangan. Bu yerlarda o'tirgan dexqonlardan soliqlar va yig'implarni shu boshqaruvchilar to'plaganlar. «Manokibi Xo'ja Axror » muallifining (bu odam Xo'ja Axrorning zamondoshi bo'lganiga qaraganda «... Xo'ja Axrorning Jizzax tumanida ishlarni boshqarish oqil va xalol bir odamga topshirilgan bu odam Xo'ja Axror o'ylaganidek zo'rlik bilan ish ko'rmagan. Xo'ja Axror bu odamni bo'shatib, o'rniga Xudoydod Qalmoq degan boshqa bir odamni qo'ygan. Nimaga oqil odamni bushatib uning o'rniga boshqa odamni tayin qildingiz ? deb savol berilganida , Xo'ja Ahror ,, Odil va xalol odamdan ko'ra, katta daromad keltiradigan o'g'ri yaxshiroq , chunki u o'ziga , xam oladi, menga xam beradi» deb javob bergan. ¹

Xoja Axrorga tegishli vasiqalar va vaqfnomalar. Bu turdagi xujjatlar ko'p va ularni arxiv va muzeylarning fonflaridan, shuningdek qo'lyozmalar saqlanayotgan kutubxonalardan topish mumkin. Mashxur sharkshunos olim O. Q. Chexovich (1912-1982-yy.) O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining Sharqshunoslik instituti va O'zbekiston Respublikasi davlat tarix arxivi fondlarida saqlanayotgan vasiqalar va vaqfnomalar fondini ko'p yillar davvomida qunt bilan o'rgandi va ular ichidan Xoja Ubaydulla Axrorga tegishlilarini ajratib olib, matni va ruscha tarjimasi, va maxsus

¹ Axmedov B.O'zbekiston tarixi manbalari. T.: „O'qituvchi“ 1991. b-73

tadqiqot bilan birga qo'shib 1974- yili „Самаркандские документы XV—XVI века” nomi bilan nashr etdi.

U ma'rifatli va raiyatparvar kishi edi. Daromadning bir qismini xayrli ishlarga sarflagan, xalq manfaatini ximoya qilgan. Masalan, 1463 - yili temuriyzoda Umarshayx mirzo Toshkent xalqidan katta miqdorda xiroj talab qilganda, Xoja Axror uni o'z xisobidan to'lab yuborgan; xunarmandlar va bozor axlidan olinadigan tamg'a solig'iga qarshi chiqqan. Xazrat eshon barcha soliqlardan ozod qilinganiga qaramay, ayrim yillari xamma qatori xiroj, ushr va boshqa soliqlarni to'lab turgan. Xoja Axror xar yili Sulton Axmad mirzo (1458—1494 yillari Movarounnaxr xukmqori)ning devoniga 80 ming mang'allani xiroj o'rnida yuborib turgan; yiliga unga xirojning bir qismini — 10 ming ku-mush tanga berib turgan.

Xoja Ubayqulla Axrorga tegishli vasiqa, vaqfnoma va boshqa xuquqiy xujjatlar xali boshqa yerlardan xam topiladi. Lekin, qo'limizdagilari xam — O. Q. Chexovich nashr qilganlarining o'zi O'zbekiston va u bilan qo'shni bo'lgan mamlakatlarning XV—XVI asr boshidagi ijtimoiy-iqtisodiy axvolini o'rganishda birinchi darajadagi manba bo'lib xizmat qiladi. Shu xujjatlardan bir nechtasini misol tariqasida keltiramiz.

VASIQA. Ollox jumlayi jaxon egasidir, uning shon-shavkati yuqori bo'lsin! (Xijriy) 859 yil jumodi ul-oxir oyining 12-kuni.

Bayramxo'ja o'g'li Xasan, mulkiga mutasaqqiy bo'lishga xaq-xuquqi bo'lgani xolda, dedi: «Samarqandning So'zangaron ko'chasida joylashgan ikki xonalik uyimni, taxoratxona va ayvoni bilan, Ubayqullaxoja Jaloliddin Maxmud o'g'liga sotdim.

Mazkur xovli-joyning g'arb tarafi oliyjanob, xurmat-extiromga loyiq bo'lgan olg'uvchining do'koni bilan tutash, shimoliy tarafi podshoxlik yerlari va qisman amir Shermuxammad xo'janing uyi bilan, sharqi-janub tarafdin esa xalqa ko'chalar bilan tutashdir.

Ushbu mulkni, barcha xaq-xuquqlari bilan, xozirda muomalada bo'lgan 1500 dinori aqliyaga sotdim.

Mazkur savdo-sotiqning kafilligi o'zimning zimmamda.

Savdo quyidagi shaxslarning guvoxligida bo'ldi:

Abu Mansur Muxammad;

Sa'dulla Muxammad al-Ispijobiy;

Axmad Ali al-Xorazmiy;

Xoja Sulton Jaxongir o'g'li;

Bayramshox Junayd Ramazon o'g'li.

Xammasi bo'lib 26 guvox».

Toshkent qozisi xuzurida tuzilgan guvoxlik ko'rsatmasi xaqida qaror

U, (jumlayi olam) egasidir!

Xijriy 920- yil jumodi ul-oxir oyining birinchi kuni ajoyib shaxar Toshkentda, Ollox uni baloyu qazo va muxtojlikdan asrasin, valiylar avlodi Muxammad Yaxyo tarafidan chaqirilgan (guvox)lar: 1) mavlono Abqug'ofur al-muqarris al-Ispijobiy; 2) janob shayxulislom, oliyjanob, shayxlar avlodi xoja Abqurazzoq marxum Boqiyxo'ja o'g'li, xoja Yaxyo tarafidan taklif qilingan; 3) janob Xo'ja Muxammad Yaxyo — xo'ja Ubaydulla poshshoning o'g'li shayx xo'ja Muxammad Nuriy avlodi; 4) janob mavlono Axmad G'azalkatiy; 5) janob mavlono Muxammad Siyoxpush (quyidagilarni) ma'lum qiladilar: «...xo'ja Ubaydulla (Axror), Ollox uning qabri xokini yumshoq qilsin, uning xukm-farmonlari qonuniy bo'lgan paytda farxzanqdi xo'ja Muxammad Yaxyoni, sirlari ravshan bo'lsin, Ollox panoxida bo'lgan Samarqand shaxridagi mazorida bo'lgan xonaqoxda mutavalliy etib tayinlangan edilar. Janob xoja Muxammaq Yaxyoning vafotidan keyin mazkur xonaqox mutavalliyliги uning o'g'li tasarrufiga o'tgan.

Nomlari tilga olingan kishilar shunday deb guvoxlik berdilar: — guvoxlarning so'zlari xamma oldida to'g'ri va xaqqoniy yozib olindi.

Mazkur sud oldida ishtirok etdilar:

Mavlono Muxammad muftiy;

Janob Mir Ibroxim amir Ismoil o'g'li;

Janob mavlono Kalon, janob mavlono Muxammad muftiy;

Mavlono Xo'jaka Boqiy;

Janob mavlono Ne'mat kotib;

Bu davrda bosh xukmdor tomonidan yirik mulk egalariga biron-xizmatlari uchun tarxon yorlig'i berish keng tarqaldi. Tarxonlik yorlig'ini olgan mulkdorlar xujjatga asosan barcha soliq, to'lov va majburiyatlardan ozod etilgan. Tarxonlik yorlig'i, odatda, amirlar, beklar, saroy amaldorlari, sayyidlar va boshqa yuqori tabaqa vakillariga berilgan. Bunday yorliqni olgan mulkdor ismiga "tarxon" so'zi qo'shib ishlatilgan. Tarxonlarning ko'pchiligi juda boy bo'lgan. Masalan, bu davrda Xirot atrofidagi mulklar Darveshali Tarxon, Samarqand va Buxoro atrofidagi juda katta yerlar Abu Ali Tarxon qo'lida to'plangan edi. Bobur Abu Ali Tarxonning shoxona xayotini tasvirlar ekan, uning xashamatli saroyi chinakam feodal saroyini eslatib turar edi va avvalo harbiy xizmatkorlarini (navkarlarini) qo'shib hisoblaganda bu saroyda uch ming kishi bor edi. (o'sha vaqatga nisbatan bu juda kata raqamdir.) O'tkazgan dabdabali to'y-tomoshalari, bergan qimmatbaxo sovg'a-salomlar to'g'risida yozadi. Temuriylar xukmronligining so'nggi davrida Buxoro, Samarqand, Shaxrisabz va boshqa viloyatlarning dexqonlaridan xamda shaxar axolisidan yig'iladigan davlat daromadlarining anchagina qismi tarxonlar qo'lida to'plangan. Mavorounnaxrda ular g'oyat katta kuchga aylangan edi. Mamlakatning siyosiy xayotida xam tarxonlarning nufuzi kuchli bo'lib juda katta siyosiy xuquqdan foydalanar edilar. Tarxonlarga berilgan katta imtiyozlar keyinchalik ushbu aslzoda qatlamning boyishi va kuchayishiga olib keldi. Ularning ayrimlari bir necha ming sonli xarbiy qo'shinga ega bo'lib oldi. Shundan bir qismi urug'-aymog'chilik jixatidan xukmdor sulola bilan bog'liq bo'lib, asosan XV asr oxirida Movarounnaxr siyosiy xayotida xal qiluvchi ro'l o'ynadi.

Amir Temurdan so'ng Temuriylar tarxon yorliqlari berishni keng suratda rasm qildilar. Amirlar, beklar, oddiy lashkar boshilar, oddiy xalq ichidan chiqqan amaldorlar, yuqori tabaqa ruhoniylarining namoyondalari bo'lgan saidlar, saroy ichidagi turli amaldorlar va hokim sinf orasidan chiqqan boshqa kishilar tarxon

¹ Axmedov B.O'zbeiston tarixi manbalari. -T. : „O'qituvchi" 1991. b-76

yorliqlari oladilar . farg’ona hokimi Umarshayh tomonidan XV asrda Marg’ilon amaldori Mirsaid Axmadga berilgan tarxon yorlig’i bizning kunlarimizgacha saqlanib qolgan. Bu xujjat shu xildagi yorliqlarning namunasi bo’lib xizmat qilishi mumkun, bu yorliq shavval oyining 28- kunida (1469 – yilning 11- mayida) berilgan.

Umar Shayh bu yorliqda Mirsaidga qarashli bog’dan va ikki qo’shlik yerdan (Qo’shlik – juftigovga, yani bir mavsumda qo’sh ho’kiz bilan haydaladigan yer miqdoriga tengdir) avvalgidek hech qanday soliq solinmasin, deb mansabdorlarga farmon bergan. Shu bilan birga yorliq nima maqsadda berilganligi ko’rsatiladi . „Yorliq oluvchi o’z daromadlaridan yolg’iz o’zi baxramand bo’lmog’I kerak “ deyiladi. Shunday qilib, Mirsaidning nomiga berilgan yorliq yangi daromadlar inom qilishni emas, balki bundan avval berilgan imtiyozlarni tasdiqlaydi, xolos.¹

XV asr manbalarida tarxonlik tushunchasini „ tarxonlik yorliqlari “ tarxonlar to’g’risidagi yoki tarxon unvoni bilan yuruvchi shaxslar to’g’risidagi eslatmalarni tez – tez uchratamiz.

Sulton Husaynga yaqin turgan kishilar orasida Sulton Ahmadning (1469 – 1494) tog’asi amaldor Darvish Muhammad tarxon ham bo’lgan. Darvish Muhammad tarxon Alishyer Navoiy Samarqandda o’qigan yillarda (1466- 1469) unga homiylik qilgan . Darvish Muhammad tarxon g’oyat boy va obro’li odam bo’lgan. Uning unvonining o’zi shuni ko’rsatadiki , juda bo’lmaganda unga qarashli yer- mulklarning bir qismi soliqalardan va majburiyatlardan ozod qilingan. Darvish Muhammad unvon olgandan keyin uning yerlarida o’tirgan dehqonlar soliqlarni davlatga emas, balki uning foydasiga olib kelib topshirishar edi.

Temuriylar hukmronligining oxiriga kelganda butun – butun viloyatlarning , masalan, Buxoro , Samarqand, Shaxrisabz va boshqa shunga o’xshash viloyatlarning dehqonlaridan xamda shaxar axolisidan yig’iladigan davlat daromadlarning anchagina qismi tarxonlar qo’lida to’plangan edi . Movorounnaxrda tarxonlar juda katta xuquqdan foydalanar edi.

¹ Temur va Ulug’bek davri tarixi.-T.: „Qomuslar bosh tahririyati.” 1996. 118-b

II.2. Bunyodkorlik ishlari, yangi irigatsiya tarmoqarinng barpo etilishi.

Ma'lumki, umuminsoniy qadriyatlar vaqt va chegarilarni pisand qilmay davom etaveradi. Binobarin, inson bolasining tarbiyasida nafaqat uning bolalik yillarida, mubolag'asiz, butun umri davomida, jamoaning, jamoa bo'lib bajarilgan ishlarning o'rni benihoya kattadir. Ota-bobolarimiz sermashaqqat va katta hajmdagi sug'orish ishlarini yil davomida birgalashib hashar yo'li bilan jamoa nazoratida bajarar ekanlar, o'zlarini tanigandan boshlab katta hayot maktabini o'taganlar, oliyjanob insoniy fazilatlar o'zaro yordam va qo'llab-quvvatlash, birovlariga pand bermaslik, tartib va intizom, o'zidan kattalarni, shu jumladan, boshliqlarni hurmat qilish) egasi bo'lishga intilganlar. Bugun biz o'zbek, millatining o'ziga xos mentaliteti, ichki dunyosi bilan turmush tarzi haqida gapirganimizda, ana shu o'ziga xoslikning paydo bo'lib shakllanishida kundalik hayotda uchraydigan barcha ish, to'siq va qiyinchiliklarni birgalashib, ko'plashib, hashar usuli bilan yengish va bartaraf qilishga asrlar davomida odatlanganimiz katta ro'l o'ynaganini unutmasligimiz kerak va yana musulmonlarning muqaddas sanalmish kitoblari Qur'oni Karim va Hadisi Sharifda keltirilgan ko'rsatma va hikoyatlar hukmdorlar va boshliqlarga itoat qilishlik, farzandlarning ota-onalari oldidagi burchi va vazifalari, insonlarning jamiyatdagi burchi va vazifalari va boshqalar) hamda Shariat va Odatning yozma va og'zaki ko'rsatmalari, qonun-qoidalari kundalik hayotda bexisob takrorlanar va amalda qo'llanilar ekan, o'zbek millati, umuman Markaziy Osiyo mintaqasida yashovchi xalqlar turmush tarziga chuqur ta'sir qilgani shubhasizdir.

Amir Temur va Temurylar mamlakatning iqtisodiy hayotida asosiy o'rin tutgan dehqonchilik va uning poydevori bo'lmish sug'orish ishlariga katta ahamiyat berishdi. XIVasr ohiri XV asr birinchi yarmida Movarounnahr va Xurosonda katta – kichik daryo va soylardan yirik irigatsiya tarmoqlari chiqarilib, korizlar qazildi, suv omborlari va xovuzlar barpo etilib, suvga tanqis ayrim viloyat va vohalar, shaxar qishloqlarning suv taminoti yaxshilandi. Qo'riq va bo'z yerlar o'zlashtirilib, obikor yerlarning maydoni kengaytirildi. Yangi – yangi qishloqlar, chorbo'g'lar va saylgoh bo'stonlar barpo etildi. Amir Temur ayniqsa Samarqand

vohasini sug'orib obod etishga alohida etibor beradi. Obiraxmat, Bozor va Naxri jadid kabi sug'orish tarmoqlari orqali obod etilgan birgina Angor tumanida dehqonchilik qishloqlarining soni 72 taga yetdi.¹

Mo'g'ullar bosqini davrida vayron etilgan Murg'ob daryosining bosh to'g'oni - Sultonbandning Shoxrux tomonidan tiklanishi va sug'orish tarmoqlarining loyqadan tozalanishi tufayli Marv shaxri va Murg'ob voxasining suv ta'minoti tubdan yaxshilandi xamda suvsizlikdan qurib qolgan shaxar atrofidagi yerlarga qayta suv chiqarilib, sug'orma dehqonchilik yer maydonini kengaytirish imkoniyati paydo bo'ldi. Xusayn Boyqaro xukmronligi davrida esa uning tashabbusi bilan Marviruddan yangi kanal chiqarilishi tufayli kattagina yer maydoni sug'orilib, obod etildi.

Xirot va Mashxad atroflarida Alisher Navoiyning tashabbusi bilan amalga oshirilgan sug'orish ishlari ayniqsa diqqatga sazovordir. Navoiy Tus viloyatining yuqori qismida joylashgan Choshmagul mavzeida Turuqband suv ombori qurdiradi. O'n farsax (60-70 km) uzunlikda maxsus kanal qazdirib, Turuqband suv omborida jamg'arilgan suv Mashxadga olib kelinadi. Natijada, Mashxad suv bilan ta'min etilib, shaxar atrofidagi yerlarga suv chiqariladi va obod etiladi. Bu davrga kelib irrigastiya texnikasi taraqqiy qiladi.

Muxandislik asosida turli sug'orish inshootlari quriladi. Temuriylar va ularga daxl qiluvchi viloyat xokimlari tomonidan Movarounnaxr va Xuroson shaxarlari atrofida istiroxat bog'lari barpo etish munosabati bilan ko'plab sug'orish tarmoqlari chiqarilib, ular toshxovuz, dargot, navo, chig'ir, charxpalak, kaynama, sharshara, osma ko'prik, xandaq, taxar va sardobalar kabi turli suv inshootlari bilan jixozlandi.

¹ Temur va Ulug'bek davri tarixi.-T.:., Qomuslar bosh tahririyati."1996. 114-b

XV asrning birinchi yarmida Movarounnaxr va Xurosonda Shoxryx va Ulug'bek xukmronlik qilgan yillarda irrigastiya ishlari ayniqsa rivoj topdi. Dashtlarga suv chiqarilib, yangi yer maydonlari o'zlashtirildi. Bu borada xususiy soxibkorlarning dashtliklardan yangi yerlarni ochish, korizlar qazib, bog' barpo etish, tashlandiq yerlarni sug'orib, obod etish uchun amalga oshirgan xar qanday faoliyati Temuriylar tomonidan qo'llab-quvvatlandi. Xatto bunday soxibkorlar bir ikki yil davomida xamma soliq va to'lovlardan ozod etilgan.

Bu davrda Temuriylar va ularning viloyat xokimlari tomonidan Samarqand, Buxoro. Qashqadaryo, Marv voxalarida. Tus vodiysida xamda Xirot va uning atrofida yirik sug'orish inshootlari barpo etilib, ayrim dexqonchilik viloyatlarining suv ta'minoti tubdan yaxshilandi. Temuriylar xukmronlik qilgan davrda amalga oshirilgan eng yirik sug'orish ishlaridan biri Samarqand vohasida Zarafshon daryosidan bosh olgan Darg'om anxoridan chiqarilgan qadimgi Angor kanalining qayta tiklanishi bo'ldi. Zamonasining eng yirik sug'orish tarmog'i xisoblangan bu kanal orqali Zarafshon daryosi oqimining bir qismi bu davrlarda ham suvli Qashkadaryo voxasiga tashlanib, uning adog'ida joylashgan daraxtlarning ko'plab xillari ko'kartirilib, mamlakat axolisi erta pishar meva. va baxor mavsumida esa quruq, mevalar bilan ta'minlangan.

O'rta Osiyoda daryo suvlarini rostlash va uni bir nechta o'zanlarga bo'lishda yirik gidrotexnik inshoot-suv bo'lg'ich-ko'priklar qurilgan, ular ko'p maqsadlarni bajarishga mo'ljallangan. Samarqand shaxrining shimoliy-sharqiy qismida Zarafshon daryosidagi temir yo'l ko'prigi yaqinidagi Cho'ponota qirlari atrofida mashxur ko'prik-suv bo'lg'ich qoldiqlari joylashgan. Inshoot Temuriylar xukmronlik qilgan davrlarda qurilgan. Ba'zi afsonalarga ko'ra suv bo'lg'ich ko'p arkali, boshqasida ikki arkali qilib qurilgan. Bizgacha ikki arkali suv bo'lg'ichning

rasmi saqlanib qolgan. Inshootning ikkinchi shimoliy-sharqiy arkasi o'tgan asrning boshlariagi zilzila oqibatida buzilib ketgan. 1953- yilda inshootni tekshirish ishlari olib borilgan. Arka o'tmas burchak ostida qurilgan bo'lib, uning qiymati 1020 ga teng. Asosi toshli qoyalar. Ikkinchi arka xam bevosita qoyali gruntga qurilgan. Xozirgacha unga boradigan yo'l saqlanib qolgan. Arkaning asosiy o'lchamlari: oralig'i-proleti - 20m, nayzasimon arkaning balandligi -10,5 m, arka eni - 7,3 metrdir. Suv bo'lgich quydirilgan g'isht va alebastrdan qurilgan. Temuriylar davrida me'morchilik san'ati o'zining eng yuqori cho'qqisiga ko'tarilgan. Me'mor va quruvchilar pishgan g'isht va alebastrli qorishma bilan katta o'lchamli nayzasimon arkalarni oson qura olganlar. Bunga misol qilib Samarqanddagi Bibi Xonim masjidi oldidagi arka peshtoqini ko'rsatish mumkin. O'rta Osiyoda arkalar pishgan g'ishtdan katta proletli konstrukstiyalarni yopish imkonini bergan. Qurilishda yog'och matryallarining chegaralanganligi uchun arkalarni qurish nafaqat konstruktiv muloxazalar balki, ko'p asrlar impyeriyaning qudratini namoyon qilgan. Nayzasimon arkani to'g'ri burchakli portalga o'rnatilishi musulmon davlatining ramziga aylangan. Ular gidrotexnika inshootlari qurilishida, ko'priklarni xoshiyalamay, sof ko'rinishda ishlatilgan. Samarqand shaxri yaqinida suv bo'lgich-ko'prikning saqlanib qolgan qis-mi konstrukstiyasi arkasining qalinligi 1,7 m, kengligi 7,2 m. G'ishtni alebastrli qorishma bilan terilgan. Qorishmaga elangan kul, qamish va boshqalar qo'shilgan. Qaqimgi ustalar oqilona va sodda usullar bilan shunday yopishtiruvchi moddalarni ishlatganlarki, ular murakkab gidrotexnik inshootlarning mustaxkamligini ta'minlagan. Quruvchilar o'zlari qurgan inshootlarining mustaxkamligini xisoblashni bilganlar, suvning inshootga ta'siri va unga mos keladigan texnik tadbirlarni qo'llaganlar. Ularning chizma va xisoblari bizgacha etib kelmagan bo'lsa xam, matematika fanidan unumli foydalanganlari ayon. Ma'lumki, bu davrda ko'plab kanal va gidrotexnika inshootlari qurilib, O'rta Osiyoda dexqonchilikni rivojlantirishga sharoit yaratilgan. Bu davrda qurilgan ajoyib gidrotexnika inshootlaridan biri Bandixonsoy ustidan o'tkazilgan akveduk xisoblanadi. Inshoot Termiz shaxridan 72 km uxuqlikda joylashgan bo'lib, XV-XVI asrlarda qurilgan. Akveduk-ko'prik birinchi

marta 1900 -yilda xarbiy injener B.N.Kostalskiy tomonidan o'rganilgan, 1956 -yilda arxitektorlar V.M.Filimonov va I.Usmonxo'jaevlar tomonidan qaytadan sinchiklab o'rganildi va o'lchamlari aniqlandi. Bu akveduk ko'priknining uzunligi 75 m, eni esa 9,5 m ga teng. Bir proleqli arkadan tashkil topgan. Arka proleti 5,66 m, soyning akveduk o'tgan qismi esa 20-25 m. Inshootning qolgan qismi janubi-g'arbiy yo'nalishda tekis nishabli quruqlik bo'ylab o'tgan. Bu inshoot uchta muxim qismdan iborat: arka nayzasimon shaklda, qalinligi uch g'isht, soyning suvini o'tkazaqi; o'tish qismining eni 6,2 m va ko'priknining janubi-sharqiy qismida joylashgan akvedukdan iborat. Akveduk tubining kengligi 1,5 m ga teng bo'lgan kanal xisoblanadi. O'sha davr irrigator-gidrotexniklari relefnining xususiyatlari, inshootga kelib tutashadigan kanalning nishabini xisobga olib kanal tubini akveduk xuquqida ko'priq qismining terilmasini mavjud yuqori belgisidan 2,5 m ga pasaytirishga majbur bo'lganlar. Oqibatda akveduk ko'priq arkasini kesib o'tadi, akveduk tubi pastdan yaxshi ko'rinib turadi. 500 yildan ortiqroq o'tgan davrda inshoot ko'p marta ta'mirlangan. Xozirgi vaqtda akvedukning ko'priq qismidan but xolatda foydalanilmoqda, akvedukning o'zidan vazifasiga ko'ra ishlatilmayapti. B.N.Kostalskiy o'z izlanishlarida akveduk-ko'prikdan tashqari Oq-Qopchig'aysoy orqali qurilgan shu turdagi akveduk va boshqa inshootlar borligini aniqlagan. O'sha davr me'mor va gidrotexniklari bunga o'xshash inshootlarni qurishda yuqori malaka va tajribaga ega bo'lganlar

Shunday qilib biron-bir sug'orish tizimi (kanallar va inshootlar majmuasi)ni qurib, uning ish faoliyatini tashkil qilish vazifasini «ariq oqsoqoli miroblar – to'g'onchilar»dan iborat irrigatorlar guruhi bajargan «to'g'onchilar» orasida «sepoyachilik». «chorpoyachilik» ishlarini yaxshi egallagan va shu ish bilan doimiy shug'ullanuvchilar ham bo'lgan).

Irrigatorlar guruhi suvdan foydalanuvchilar bilan birgalikda ularning kuchi va mablag'i hisobiga, suvni manbalardan kerakli vaqtlarda haydab kelib ularga bo'lib berish maqsadlarida xizmat qilganlar. biz bu yerda sug'orish ishlarining tashkiliy tomonlarini shu tarzda hal qilinishiga zamdu sanolar o'qish niyatida emasmiz, boz ustiga ariq oqsoqollari, miroblar va to'g'onchilar guruhlarini turli-

tuman toifadagi. va xarakterdagi odamlardan tashkil topgani, ular orasida ko‘proq o‘z manfaatini o‘ylaydigan va noinsoflari ham bo‘lgani shubhasiz. Lekin baribir, agar o‘sha davr jamiyat taraqqiyot darajasi, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy imkoniyatlar va shart-sharoitlar majmuini nazarga olsak, ent ko‘p tarqalgan qiyin sug‘orish ishlarini tashkil qilishda mubolag‘asiz demokrat) tamoillarga asoslangan bunday ma‘muriy-tashkiliy boshqaruv usulining keng qo‘llanishi sug‘oriladigan dehqonchilikning rivojlanishida ijobiy, rag‘batlantiruvchi omil bo‘lib xizmat qilgan deyishga xamma asoslarimiz bor¹.

Shu o‘rinda asrlar osha avloddan-avlodga o‘tib bizgacha yetib kelgan ajoyib qadriyatlarimizdan biri to‘g‘risida so‘z yuritmoqchimiz. Gap shundaki, sermashaqqat va keng ko‘lamdagi sug‘orish ishlarini qisqa muddatlarda va faqat qo‘l kuchi bilan bajarishga to‘g‘ri kelgan. Ayniqsa, ariqlarga suv chiqaruvchi inshootlar suv buzib ketganda yoki ayni sug‘orish ishlari eng qizigan paytlarda loy-qunga to‘lib qolgan ariqlar tozalash kerak bo‘lganda, bunday ishlarni bajarish uchun suvdan foydalanuvchilar ixtiyorida oylar emas kunlar, hatto soatlar bo‘lgan, xolos. Bunday paytlar odamlar bir yoqadan bosh chiqarib mirob va to‘g‘onchilar rahbarligida lozim bo‘lgan ishlarni tez va sansalarsiz bajarganlar, shunga ularni sharoit majbur qilgan. Bora-bora sug‘orish kanallari va inshootlarida: barcha ishlarni (qurish, ta‘mirlash, tozalash va hatto, oila, qarindosh-urug‘, mahalla-ko‘ylarda bajariladigan shaxsiy va ommaviy ishlarni bajarish ham, birgalashib hshar yo‘li bilan bajarish hamma tan oladigan odat tusiga kirgan, Shariat va Odat qonun qoidalarida o‘z aksini topgan.

Baxtga qarshi o‘sha davrda hashar yo‘li bilan bajrilgan sug‘orish ishlarining miqdoriy ko‘rsatgichlari (umumiy hajmi, kishi boshiga bir kunda yoki bir gektar (desyatina) boshiga bajarilgan ishlar to‘g‘risida bizda aniqroq. ma'lumotlar yo‘q.. Bu «hashar usuli» to‘g‘risida aytilgan barcha iliq so‘zlar umumiy gap darajasida qolaveradi.

Feodal ishlab chiqarish uslubi sharoitida davlat sug‘orish inshootlari qurilishi uchun mablar xam, qurilish materiallari ham ajratmas edi, shu bois suv xo‘jaligiga tegishli barcha chora-tadbirlar mehnatkash xalqning juda katta mablag‘lari va kuchlari

¹ Қодиров А. Ўзбекистон ирригацияси.- Т.:, Ўзбэкистон”. 1998. – Б. 47.

hisobiga amalga oshirilardi. Masalan, tarixiy hujjatlarning ko'rsatishicha, Ravotxo'ja suv ayirgich inshootini ta'mirlash uchun har yili bahorda 1436 nafar ishchi ajratilardi va 54 ming donaga yaqin shox-shabba va toshlardan yasalgan to'shak (fashin tyufyak)lar, mingaab somon bog'lari va kerakli transport-ulov vositalari keltirilardi («Samarqand tarixi»). Erta bahorda va kech kuzda mardikorlarning mehnati hukumatning ko'rsatmasiga muvofiq ishlatilardi. Ularning shaxsiy dalalari qarovsiz qolardi, xo'jaliklari parokandalikka uchrardi.

O'zbekiston chegaralari bilan aniqlanuvchi hududda o'tgan asr o'rtalarida ham undan oldin va xatto, sho'rolar hukmronligining dastlabki o'n yilliklarida ham, katta-kichik hajmda sug'orish ishlariga o'n minglab, yuz minglab suvdan foydalanuvchilar – dehqonlar jalb qilingan va ular hashar usulida, ya'ni hech kimdan sariq chaqa ham olmay, o'z kuchlari va mablag'lari hisobiga juda katta hajmdagi ishlarni bajarib keldilar va bu ular uchun qon-qoniga singib ketgan tabiiy bir narsa, odat tusga kirgan va vijdon amri hamda turmush taqozosi bilan bajariladigan barcha uchun barobar bir ish edi. Taassufki, mazkur kitobimda Katta Farg'ona kanali va shunga o'xshash ko'plab boshqa sug'orish inshootlari hashar usuli bilan qurilgani to'g'risida lom-mim deyilmaydi, uni o'rniga yangi atama – «tezkor xalq qurilishi usul ishlatiladi».

Lekin sanab o'tilgan shart-sharoit va qiyinchiliklarga qaramay, ota-bobolarimiz sug'orish ishlari tashkil qilish va boshqarish sohasida eng sodda, mavjud sharoitlarga moslashuvchan, demokratik prinsiplarga asoslangan «tashkiliy-boshqaruv tizimi»ni yarata bilganlar;

Ariq oqsoqoli – mirob – to'g'onchilar o'z faoliyatlarida asosan suvdan foydalanuvchilar – dehqonlarning shaxsiy kuch va mablag'lariga tayanganlar, ishlar tashkil qilib, ularni bajarishda esa jamoa bo'lib hashar yo'li bilan amalga oshirish asosiy texnologiya usuli bo'lgan.

Davlat yerlarining suvsiz dasht, to'qayzor qismi ko'chmanchi jamoalaiga bo'lib berilgan bo'lib, ular bu yerlardan foydalanganliklari uchun davlatga xiroj to'lar edilar. Bunday yerlar sotilmasdi va ayirboshlanmasdi. Davlat yerlarining boshqa bir qismi hukmron sulola a'zolariga, yirik davlat mansabdorlariga,

lashkarboshilariga davlat oldidagi xizmatlari evaziga suyurg'ol shaklida in'om etilgan edi. Suyurg'ol olganlar u yerni boshqarish huquqini ham olganlar. Suyurg'ol egasi davlat xazinasiga xiroj toiasi hamda oliy hukmdorning chaqirig'iga ko'ra o'z qo'shini bilan harbiy yurishlarda ishtirok etishi lozim edi.

Sug'orish inshootlarini yaroqli holda saqlashning og'ir yuki mehnatkashlar gardanida edi. Aynan ularning matonatli mehnati, sabr-toqati, sug'orish inshootlarining muqim ishlashini ta'minlar edi. Dehqonlar suvdan foydalanishda asrlar davomida juda katta tajriba to'plagan edilar. Ular shunday sug'orish inshootlarini bunyod eta oladilarki, unga tan bermaslikning iloji yo'q edi. Xususan, suv ayirg'ich to'g'oni qurishdagi mohirlik buning isbotidir.

Daryo va kanallarga o'rnatilgan chig'irig eng ko'p ishlatiladigan suv ayirg'ich edi. Shunday chig'iriqlar ham yaratilganki, ular suvni hatto 4 metr va undan ham balandga chiqarib bera olardi. Suvni chuqur ariqlardan chiqarib olish uchun tutqichli suv ayirg'ichlar ishlatilar, bunda ot, tuya, eshak va ho'kiz kuchidan foydalanilar edi.

Dehqonchilik mehnat qurollari nihoyatda sodda edi. Oddiy dehqon so'qasi (omoch) asosiy dehqonchilik quroli edi. Ot, ho'kiz, sigir, tuya, eshak dehqonning suyanchigi hisoblangan. Yaxshiyamki, O'zbekiston tuprogi hosildor, iqlimi qulay mamlakatdir. Shu ikki muhim omil ham oddiy ishlab chiqaruvchi kuchlar bilan ancha serhosil va unumdor dehqonchilikni yo'lga qo'yish imkonini berardi.

Unumdor yerlarga suv kamligi uchun ishlov berish qiyin kechadi, chorva boqish uchun qulay payt erta bahor va kech kuzga to'g'ri kelib, bu hududdan suv tanqisligi sababli savdo karvonlari juda kam harakatlanadi. Buxoro xonligining barcha daryolari Amudaryo tizimiga tegishli bo'lib, ulardan juda ko'pchiligi hozirgi paytda o'z suvlarini daryoga ham eltishga ulgurmay ekinlarni sug'orish, ko'llarni to'ldirish uchun ishlatib yuboriladi. Amu-Daryo Panj va Vaxsh daryolarining qo'shilishidan hosil bo'lib, pomir tog'laridan katta hajmdagi suvni daryoga olib keladi.

Daryoning chap qirg'og'idan kelib quyiluvchi irmoqlari Hindukush tog'laridan boshlanib, yo'l-yo'lakay ekin maydonlarini sug'orish uchun ishlatib yuboriladi. Shu sababdan ularning suvlari daryoga yetib bormaydi.

Zarafshon daryosi Oloy tizma tog'laridagi Zarafshon muzligidan boshlanib, Kattaqo'rg'on yaqinidagi Xo'ja qo'rg'on qishlog'i yaqinidan yerlarini sug'orishni boshlaydi. G'arbga qarab harakatlangan sari undan ko'plab kanallar qazib chiqarilgan, natijada suvi kamayib, yo'q bo'lish darajasiga yetadi.

Suvni ruxsatsiz olish yoki navbatsiz suvni tomorqaga ochish o'g'irlik hisoblanib, maxsus jazo sifatida suvdan mahrum qilish, jarima to'lash, hattoki zindon jazosi bilan jazolanar edi. Bundan tashqari, ariq va sug'orish tizimlarini tozalashga butun qishloq aholisi ommaviy jalb qilingan. Ushbu hasharga qatnashmaganlar suvdan mahrum qilingan. Suv taqsimoti miroblar, oqsoqollar tomonidan belgilanib, suv, qum, quyosh soati kabi harakat belgilari bo'yicha qat'iy nazorat ostida aniq o'lchov bilan berilar edi.

Suv taqsimoti davrida sug'oriladigan yerning hajmi hisobga olinib, yerga qancha suv kerakligi, shuningdek, 1 omoch yoki yoki 10 omoch yerni sug'orish uchun zarur suv hisobga olingan. Umumiy hisob orqali mirob yerga qancha suv lozimligini aniqlash bilan birga, yerning tarkibi, baland-pastligi, tuproqning holati, sho'rlanish darajasi, qattiqligiga ham e'tibor qaratgan. Shu hisob-kitoblar yordamida har bir hovli, xo'jalik uchun suv solig'i hisoblab chiqilgan.

Tabiiyki, sug'orish inshootlarini muttasil ta'mirlab turish va yangi inshootlar qurish, katta sug'orish tizimlarini qurishda ishni tashkil etish uchun juda ko'p mablag' va kuch sarflash zaruriyati tug'ilar edi.

II.3. Temriylar davrida dehqonchilik va chorvachilikning o'ziga hos xususiyatlari.

O'rta Osiyoda xo'jalikning asosini sug'orib dehqonchilik qilish va baxorikor yerlarga ekin ekish tashkil etar edi. Dexqonlar va xunarmandlar maxsulotlarni o'zaro alishtirishdan tashqari, ko'chmanchi chorvadorlar bilan xam qadimdan ulardan xayvon, teri, jun olib, ularga don va mato yetkazib berar edilar. Uzoq vaqtlardan beri mexnatning bunday taqsimlanishi xo'jalikning xamma tarmoqlarini kuchaytirishga, tovar-pul munosabatlarini rivojlantirishga va hozirgi O'zbekiston xududlarida yirik shaxarlarning vujudga kelishiga olib keldi.

Qishloq xo'jalik ishlab chiqarish jarayoni va mexnat qurollari necha asrlar davomida juda oz o'zgardi. Baxorgi sug'orishdan keyin yerni uzunasiga, ko'ndalangiga va ma'lum oraliq qoldirib diagonal bo'yicha qayta-qayta xaydar edilar. Yerni xo'kiz, sigir va ot qo'shib, ba'zan tuya qo'shib xaydalar edi. Qadimgi yog'och omoch xaydash quroli edi. Omoch yerni ag'darib xaydamay, faqat yumshatar edi, xolos. Bir necha ming yillar davomida bu qurolni mukammallashtirish ishi unga cho'yan yoki temir so'qa o'rnatishdan iborat bo'ldi.

Ko'p ish kuchi sarf etishga qaramay, bari bir omoch yerni yetarli yumshata olmas edi. Shunga ko'ra ekishdan oldin yerni 6-9 marta qayta xaydashga to'g'ri kelar edi. Omoch yordami bilan xaydalgan yerni maxalliy yog'och mola yoki yotqizib qo'yilgan omoch bilan tekislar edilar. Yerni go'ng bilan qum aralashtirib, buzilgan devor tuproqlari, o'simliklar poyasi (sholi ekkanda) bilan o'g'itlar edilar. Xosilni o'rib-yig'ib olish ishi qo'lda, o'roq yordami bilan bajarilar edi. Don xayvon yordami bilan yanchilar, bug'doy esa suv tegirmonlarida, xayvon kuchi bilan ishlaydigan tegirmonlarda, ba'zi yerlarda esa qo'l tegirmonlarida tortar edilar¹.

Sug'oriladigan yerlarning kamligi tufayli tog' etaklarida va ba'zi vodiylarda baxori bug'doy ekish uchun sug'orilmaydigan yerlarni xaydar edilar. Baxori bug'doy uruqqa nisbatan to'rt-besh marta oshiq xosil berar edi. Sug'oriladigai

¹ Ўзбекистон тарихи (Олий ўқув юртларининг номутахассис факультетлари талабалари учун дарслик). Профессор Р.Х. Муртазаевнинг умумий тахрири остида. – Т.: “Янги аср авлоди”, 2003. 335-бет.

yerlarga ekilgan bug'doy bir necha marta ko'p xosil berar va ko'pincha yoz davomida ikki marta xosil olinar edi. Bug'doy va arpa o'rib-yig'ib olingach, o'rniga kunjut, mosh, tariq yoki qovun ekar edilar. Ammo bu suv va o'g'it syerob bo'lgan xo'jaliklardagina mumkin edi. Moli va yaylovi kam bo'lgan ko'pchilik dexqonlarda o'g'it kam bo'lardi. Suv yirik yer egalari, boylar va xon amaldorlari qo'lida edi. Buning ustiga tog'lardagi qor zapasi daryo va kanallarni xar yili xam etarli miqdorda suv bilan ta'minlamas edi. Baxorgi ekinlar ko'pincha qovjirab qolar edi. Umuman, dexqonlar g'alladan mo'l xosilni juda og'ir mexnat evaziga etishtirar edilar.

Dehqonchilik asosan sug'oriladigan hosildor yerlarda va lalmi dehqonchilik uchun qulay bo'lgan adirlar, tog' va tog' oldi hududlarida rivojlangan edi. Yerdan mehnat qiladigan kishilarning asosiy qismi kambag'al qishloq aholisi bo'lib, ular o'z yer maydoniga ega bo'lmasdan, ijaraga olingan yerda dehqonchilik qilib kun kechirgan.

Movarounnaxrning serxosil vodiylaridagi dehqonchilikda turli donli ekinlar yetishtirilgan, asosan bug'doy ekilgan.

O'rta Osiyo dexqonlari yerni qunt bilan ishlab, paxta, sholi, jo'xori, tariq, arpa, beda yetishtirganlar. Zamondoshlar XV asrdayoq bog'dorchilik va polizchilikning xam keng rivojlanishi, meva va sabzavotlarning turli-tumanligini, ajoyib amaliy malakani va axolining dehqonchilik ishlariga mexr qo'yganliklarini qayd qilib o'tganlar.

Dehqonchilik uchun qulay bo'lgan hosildor yer maydonlari, bepoyon yaylovlar hukmdor va uning yaqinlari, yirik harbiy-ma'muriy amaldorlarga qarashli edi. Harbiy-ma'muriy amaldorlarga va yirik din peshvolariga davlat oldidagi xizmatlari uchun beriladigan bunday yerlarda asosan yersiz kambag'al dehqonlar yollanib ishlaganlar. Poliz, bog', sabzavot va g'o'za ekiladigan yerlarda, shuningdek, ariqlarni tozalashda ketmon asosiy qurol bo'lib xizmat qilgan. Xorazmda belkurak keng qo'llanilgan.

Birinchi o'rinda don ekinlarini yetishtirish turgan. Boshhoqli ekinlar (bug'doy; arpa) asosan lalmikor yerlarda yetishtirilgan. Sug'oriladigan yerlarda

sholi, jo‘xori, tariq, dukkakli ekinlar (mosh, loviya) ekilgan. Don maxsulotlari bilan qishloq aholisi o‘z ehtiyojlarini va shahar aholisi ehtiyojlarini to‘la qondiribgina qolmay, yetishtirilgan hosilning bir qismi qo‘shni, chorva bilan shug‘ullanadigan ko‘chmanchi davlatlarga eksport qilingan, buning evaziga chorvachilik maxsulotlari keltirilgan.

Ikkinchi o‘rinda bog‘dorchilik va uzumchilik turgan, bog‘dorchilik va uzumchilik mahsulotlarining bir qismi, asosan quritilgan xolda (turshak, mayiz) tashqi savdoga chiqarilgan.

Uchinchi o‘rinda sabzavot va poliz ekinlari turgan.

To‘rtinchi o‘rinda chorvaga kerakli bo‘lgan beda va boshqa ozuqa ekinlari yetishtirilgan.

Tabiiyki, ekin turlari va ularni joylashtirish masalalari bilan shug‘ullanadigan biron-bir ma‘muriy mahkama yoki maxsus tayinlangan shaxslar bo‘lmagan. Bu masala talab va ehtiyojlarni hisobga olgan holda bozorgir mahsulot yetkazishga intilishlar ta’sirida o‘z yechimini topgan. Shu sababli ayrim mahsulotlar bir yili «serob» bo‘lsa, kelasi yili «taqchil» bo‘lgan...¹

Qabila yoki urug‘ a’zolari dehqonchilik, keyinchalik sug‘oriladigan dehqonchilik bilan o‘trok, xolda shug‘ullana boshlagan uzoq zamonlardan boshlab amalda sug‘orish ishlarini tashkil qilish, uni boshqarish sohasida yangidan-yangi ehtiyojlar tug‘ila boshlagani aniq, va bu fikrga shubha qilmasa ham bo‘ladi.

Turli-tuman sabzavot, meva va poliz o‘simliklari – piyoz, sabzi, bodring, qovoq, tarvuz, olma, olxo‘ri, bodom, anjir, olcha, nok, anor, shaftoli, o‘rik, ko‘p sonli va ajoyib navli uzumlar muvaffaqiyat bilan o‘stirilgan.

Geografik xolati va yil fasllariga qarab uning turli navlari ekilgan: gandum obi (sug‘orma bug‘doy), gandum safidcha (ok bug‘doy), gandum surxoki (kizil bug‘doy), gandum surxoki baxori (baxorgi qizil bug‘doy), yirik donli ushtur dandon yoki tuya tishi. Tog‘li joylarda bug‘doyning sovuqqa chidamli navlari yetishtirilgan.

¹ Қодиров А. Ўзбекистон ирригацияси тарихидан лавҳалар. – Т.:, Ўзбекистон”. 1998. – Б. 9.

Movarounnaxrning asosiy dexqonchilik rayoni doimo Zarafshon vodiysi bo'lib kelgan. Undan keyin Qashqadaryo vodiysi turgan. Bu yerlarda xosil boshqa viloyatlarga qaraganda tez pishgan va odatda shimolroqdagi shaxarlarga yetkazilgan. Xo'jand atroflarida xam donli ekinlar yetishtirilgan, biroq axoli ehtiyojni to'liq ta'minlamagani uchun xam, uni mo'l xosil olingan Farg'onadan keltirilgan.¹ Manbalarda Shosh (Toshkent)ga tutash yerlar ishlov berilganligi bilan ajralib turgani, Chag'oniyon viloyatida non arzon bo'lgani, Qarshida xam yaxshi xosil olinishi xaqida xabar beriladi: “(Bu yerda) bug'doy va qovunlar mo'l-ko'l” deb yozadi mualliflardan biri. Surxondaryoda Termiz donli ekinlar yetishtiriladigan asosiy joylardan biri bo'lgan. Bu joydan Amudaryo orqali Xorazmga bug'doy yuborilgan.

Xorazmda eng ko'p xosil Vazir degan joydan janub tomonidagi pasttekislikda yetishtirilgan. Bu yerda, Fargonaning ayrim tumanlari singari, jo'xori yetishtirilgan, u keyinchalik Qo'qon juxori nomini olgan. Yerlarning bir qismiga beda ekilgan. Qishloq xo'jaligida, xususan, g'allakorlik, sabzavotchilik va polizkorlik deyarli hamma ekin navlari yetishtirilgan. Bog'dorchilikka zo'r ahamiyat berilgan. Shuningdek, arpa va tariq xam ekilgan. Uch turdagi don-bug'doy, arpa va tariqning muallim, tolib, vaqf xodimlariga berilishi ko'pgina vaqf xujjatlarida qayd etiladi. Donning uch navidan katta samarqandcha o'lchov bo'yicha 24 man xajmida, masalan, mujavir -Ishratxona maqbarasining doimiy nazoratchisi olgani 1464 -yil vaqf yorliqlarda qayd etilgan.¹

Kambag'allar arpa va tariqdan sof xolda va turli aralashmalar bilan non yopishgan. Yarim ko'chmanchi axoli tariqni qatik bilan iste'mol qilgan. Mosh va no'xat barcha joylarda ekilgan.

O'rta Osiyoda eng keng tarqalgan ekinlardan biri guruch bo'lib, Amir Temur zamondoshlaridan birining qayd etishicha, Samarqand tomonlarda “benixoya kop” edi.

Temur va temuriylar davri Movarounnaxrda texnik ekinlardan paxta muxim o'rin tutgan. Tarixchilar qayd etishicha, u Samarqand yaqinidagi yerlar, Balx

¹ Захириддин Мухаммад Бобур. Бобурнома. - Т.: 1989, 7 б

atrofi, Shaxrisabz yaqinidagi sug'orilma yerlar va boshqa joylarda yetishtirilgan.¹

Movarounnaxr qishloqlari va ko'pgina shaxarlarida paxtadan ip-gazlama tayyorlanishi, shuningdek ko'pchilik xunarmandlarning paxtadan muayyan gazlama turi tayyorlashga ixtisoslashgani bu ekinni xamma joyda yetishtirish kengayganidan guvohlik beradi. Qishloqliklar o'z ehtiyojidan orttirib, bu matolarning bir qismini keng iste'molchilar-shaxarliklar va saxro axolisi orasida sotish maksadida xam ishlab chiqargan. Shuningdek, paxta yetishtirishning tarqalganligini shu narsa xam tasdiqlaydiki, yirik shaxarlarda yaqin-atroflardan keltiriladigan paxtani saqlash va sotish uchun maxsus binolar qurilgan.

Tut daraxti, asosan ipak qurtlarini ko'paytirish va boqish uchun ekilgan. Bu daraxtlar mevasi, qishda quritilgan xolda xam istemol qilingan. Tut ko'chati odatda sug'orish kanallari, ariqlar bo'yiga ekilgan. Pilla xom ashyosi asosan shaxarga keltirilib, undan turli matolar to'qilgan, Samarqand va Buxoroda pilla sotadigan do'konlar bo'lgan.

Bo'yoq olinadigan o'simliklar, jumladan qizil va sariq ranglar olishda foydalanilgan ro'yan o'simligi yetishtirilgan. Xina nafaqat tirnok bo'yash uchun kosmetikada, balki sanoat axamiyatiga ega bo'lgan siyox, tayyorlash, kog'ozga tegishli rang berishda ishlatilgan. Xina dorivor vosita sifatida xam qo'llanilgan.

Samarqand baxmali va boshqa matolar, yozma qog'ozlarni bo'yashda ishlatiladigan qimmatbaxo qirmiz bo'yog'i, extimol, O'rta Osiyoda xam tayyorlangan. U koshenil xashorati tanasidan olingan, o'zi xam shu nomdagi kaktusda oziqlanib, uzoq issiq mamlakatlardan keltirilgan. Eng keyingi davr manbalariga ko'ra, Buxoroda "qirmiz nomli qimmatbaxo bo'yoq cho'ldagi uncha katta bo'lmagan daraxt qurtlaridan olinadi".

Shaxar bozorlarida sotiladigan xushbo'y va dorivor vositalarning ayrim turlari Movarounnaxr yerlaridan, boshqalari tashqaridan keltirilgan. Bog' va uzumzorlar katta yerlarni egallagan. Olma, nok, anor, shaftoli va boshqa mevalarning xilma-xil turlari xaqida ko'plab asarlarning mualliflari yozadi. Bu bog'lar Samarqand, Toshkent, Shaxrisabz, Termiz va boshqa shaxarlarni qalin devor kabi o'ragan edi.

¹ Temur va Ulug'bek davri tarixi. -T.: „Qomuslar bosh tahririyati.”1996. b-117

Zayniddin Vosifiy Toshkent bog'larida barq urib o'sgan gul va daraxtlar latofatini kuylagan.

Xovuzli va soya-salqin daraxtli, jildiragan jilg'ali ajoyib bog'lar axolining yuqori tabaqa qismiga xizmat qilgan. Bunda maxsus reja bo'yicha ekilgan mevali va manzarali daraxtlar va ko'plab gullar o'sgan.

Asarlar mualliflari qayd etgan stirus ekinlar e'tiborni tortadi. Amir Temur buyrug'i bilan tashkil etilgan bog'da limon o'stirilgan, aniq materiallarning ko'rsatishicha, u boshqa zamonlarda xam yetishtirilgan. Masalan, deyarli bir yarim asrdan so'ng Badriddin Kashmiriyning ma'lumoticha, Buxoroning Jo'ybor degan joyida limon, xurmo va shamshod daraxti o'sgan.

Movarounnaxrda uzumning turli navlari yetishtirilgan. Samarqandga yaqinlasharkan, Kastiliya elchisi Klavixo Temur davlati. poytaxtini o'rab olgan bog'-rog' va uzumzorlarni ko'rib xayratdan yoqa ushlagan: "Bu bog'u rog'lar va uzumzorlar shunchalik ko'pki, shaxarga yaqinlashganing sari' baland daraxtli o'rmonni va uning o'rtasida shaxarni ko'rasan", deb yozadi u.¹

Soxibkorlik boshqa joylarda xam, jumladan Toshkent, Andijon atroflarida rivojlangan edi. Turli uzum navlari, jumladan o'sha asrda eng yaxshi samarqandcha va toshkentcha uzum navlari qatorida soxibi navi xam yetishtirilgan. Musallas tayyorlash rivoj topgan; darajasi turlicha bo'lgan musallaslar tayyorlangan, buxorochasi ular ichida eng yaxshisi xisoblangan. Temur va Ulug'bek tashkil etgan bazmi jamshid va tantanali qabullarda soqiy (may quyuvchi) barchaning e'tiborini qozongan. Ulug'bek davrida mashxur bo'lgan Bog'i maydonda o'simliklar juda oqilona joylashtirilgan. Bog'cha nomi bilan ataluvchi bog' barpo etilishi xam Ulug'bek nomi bilan bog'liq.

Temuriylar davrida chorbog'larning muayyan tartibda , yagona tarx asosida qurilgani malum. O'sha davrda bog'dorchilikka doir qator risolalar yaratilgan. Shulardan biri Niyoziy (boshqa manbalarda Fozil Hiraviy) tomonidan yozilgan „ Irshoduz ziroat fi ilmil xirosat “ (ekin ekish yo'riqlari va dehqonchilik ilmi)

¹ Temur va Ulug'bek davri tarixi -T.:., Qomuslar bosh tahririyati." 1996. b-116

kitobidir. Mazkur asarning „ Chahor bog’ tarxi va uning imorati “ sarlavhali bo’limida chorbog’ qurish qoidasi quyidagicha bayon etiladi.

„ Qoida shulki, chahorbo’ning atrofini devor tagidan uch ziro (bir ziro – 70 sm) tashlab, bir ziro keladigan ariq qaziladi. Ariqning devor tomondagi qirg’og’iga bir – biriga yaqinlashtirib safidori (Samarqandni ar ar teragi) ekiladiki, ul hushnamodir. Kaju (qarag’ay) u qadar latofatli emas suning uchun u darkor emas. Bog’ tarafidagi ariq qirg’og’iga safsan (gulsafsar) ekish munosibdir. Keyin yana yo’lak uchun uch gaz (gaz 107 sm) yo’l tashlab, bir ziroluk ariq qaziladi. Uning yo’lak tomonidagi qirg’og’iga safsan ekilib safidoridan 5 ziro uzoqlkda bo’lgan uning pushtasiga zardoli ekiladi. Har ikki zardolinig oralig’iga guli sulh va shaftoli ekish munosibdur. Mazkur zardolinig har biridan bog’ ichkarisi tomon 5 zar oraliq tashlab yo zardoli ekib , uni payvand qiladilar, yo uzum ekadilar. Shundan keyi oraliq oldiga xovuzga boradigan ariq chiqaziladi. Uning qirg’og’iga hamishabahor, savsani rasmi va hanjari ekiladiki, ular hushnamodir. Mazku shohariqning har ikki qirg’og’i bo’ylabrahrav uchun atrofi o’ralgan pushta tashlanadi. Sebargazo tomonda alohida – alohida baland chahor chaman ajratiladi. Birinchi chaman – anor, ikkinchi – shaftoli, uchinchi – behi va shalir , to’rtinchi – olmurut bo’ladi. Imorat kursisi atrofiga chinor , tol ,tut ekadilar. Imoratning janub tomonidagi supaga olma ekiladi. Chunki issiq oftob kunlari olma daraxti kunning taftini qaytaradi.¹

Qishloq xo’jaligida poliz ekinlari katta o’rin tutgan, ular “butun dunyoga eng yaxshi va eng mo’l-ko’l” deb xisoblangan. “Movarounnaxrning xech bir yerida Buxorochalik ko’p va a’lo qovun yetishtirilmagan”, deb yozgandi keyinchalik Bobur. “Miri Temur” deb atalgan va Buxoronikidan shirinroq xisoblangan qovun navining yetishtirilishi, extimol, Temur nomi bilan bog’liqdir. “Farg’ona Axxisida “miri Temur” nomli, Buxoronikidan totli va nafis kovun navi bor”, deb yozadi Bobur. Xorazm kovunlari, ayniksa ko’k tarnay navi juda ajoyib bo’lgan.

Manbadan chiqarilgan suvni suvdan foydalanuvchilar (dehqonlar)ga bo’lib berishda mayda hududiy qishloq, jamoalari muhim rol o’ynagani ma’lum. Bunday

¹ Naim Norqulov. Temuriylar davri madaniyatidan lavhalar. –U.:, Xorazm” – 1996. B-19.

jamoalarni Xorazmda «jabdi», Zarafshon vodiysida «qo'sh», Farg'ona vodiysida «ketmon», Qashqadaryoda «paykal», Toshkent vohasida «tup» va hokazo deb atalgani ma'lum. Ular bajargan ish va olinadigan suv o'zaro bog'liq bo'lgan.

Har qaysi birlashgan jamoa o'z rahnamosi yoki oqsoqoliga (jabdiboshi, qo'shboshi, tupboshiga.) ega bo'lgan va u miroblar bilan hamkorlikda ishlagan, hashar ishlarini tashkil qilishda yordam bergan, shunga o'xshash ishlarni tashkil qilishda yuqori ma'muriyat oldida javobgar hisoblangan. Lekin bunday vertikal bo'yicha yuqori ma'muriyat oldida javob berish mas'uliyati qay darajada keng tarqalganligi to'g'risida aniqroq ma'lumotlar yo'q.

Qizig'i shundaki, bu lavozimlarni egallash uncha-muncha odamning qo'lidan kelavermasdi. Masalan, mirob lavozimiga, biron-bir qishloq dehqonlarining yoki urug' vakillarining yig'inida o'z oralaridan ishbilarmon, sofdil va insofli odam (odamlar) nomzod qilib ko'rsatilib, demokratik usulda (ya'ni ovoz berish yo'li bilan) saylanardi va u ana shu qishloq aholisi oldida javobgar hisoblanardi. mirobning vazifasiga manba (daryo, soy, anhor va h.)dan kanalga suv chiqarish, uni ariqlar yordamida dalalarga haydab kelish va dehqonlarga bo'lib berish bilan bog'liq barcha ishlarni (ariq kovlash, inshoot qurish, tozalash va ta'mirlash ishlari, suvni bo'lish kabi) bajarishda suvdan foydalanuvchi, ya'ni dehqonlarga yaqindan yordam berish, ularni shu ishlarga tashkil qilish kiradi. Demak, mirob maxsus amaliy bilim va tajribadan tashqari, shariat-odat qonun-qoidalaridan xabardor, odamlarning boshini qovushtirib ishlatish qo'lidan keladigan ish boshi ham bo'lishi kerak. Agar mirob o'z ishining uddasidan chiqmayotgani ayon bo'lib qolsa, qishloq yoki urug' yig'ilishi uni boshqa miroblikka da'vogar kishi (dehqon) bilan demokratik usulda almashtirish imkoniyatiga bo'lgan.

Ariq oqsoqoli odatda, bir nechta qishloq yerlari suv beradigan yirik kanal (ariq) boshida turgan, uning qo'l ostida bir nechta miroblar o'z ariqlari ishiga boshchilik qilganlar. Ariq oqsoqollari lavozimi dastlabki davrlarda miroblar ichidan eng obro'li ishbilarmonlari tanlab olingan va saylangan. Bu ham qishloqlar aholisi yoki ularning vakillari ishtirokida yoki roziligida amalga oshirilgan¹.

1 Қодиров А. Ўзбекистон ирригацияси тарихидан лавҳалар. – Т.: „Ўзбекистон“. 1998. – Б. 20.

Ariq oqsoqollarining vazifasiga asosiy kanal uning boshlanishida bajariladigan barcha ishlar (inshoot, to'g'on qurish yoki uni ta'mirlash, bosh kanal tozalash, ta'mirlash va h.lar)ning vaqti va xajmlarini aniqlash, har qaysi mirob boshchiligida bajariladigan ishlarning hajmi, vaqti, kerakli qurilish materiallari, ulov vositalari va boshqalarni aniqlash va miroblar zimmasiga taqsimlab berish, bu ishlar bajarishda yordam ko'rsatish, barcha janjalli va niizoli ishlarni tezda bartaraf qilishda ularga ko'maklashishlar kirgan. Xullas, ariq oqsoqollari yoki qishloqlar yoki urug'lararo darajadagi lavozim bo'lgan ular shunga yarasha obro'-e'tiborga ega bo'lganlar. Zamonlar o'tib ayrim hududlarda ariq oqsoqoli mirob lavozimlari otadan bolaga meros bo'lib qoladigan lavozimga aylangan, ularning bir nechta avlod bo'g'inlaridan iborat shajaralari (dinastiyalari) ham paydo bo'lgan. Lekin ularning ishlariga jamoa ishtirokida baho berish, nazorat qilish hamma hollarda ham asosan saqlanib qolavergan.

Chorva mollari yetishtirish bilan bir qatorda ularni tashqi savdoga ham chiqarganlar, transport va yer haydash ishlarida xo'kizlar, otlar, ikki urkachli tuyalardan keng foydalanganlar.

Xo'jalikning asosiy turlaridan biri chorvachilik edi. Mamlakating iqtisodiy hayotida ayniqsa yaylov chorvachiligi: yilqichilik, qorako'lchilik, tuyachilik hamdapodachilik muhim o'rin tutadi. Qishloq xo'jalik mahsulotlari hoh u dehqonchilik, hoh chorvachilik mahsuloti bo'lsin, shubhasiz , oddiy mehnatkash xalqning og'ir va mashaqqatli mehnati tufayli yetishtirilib , uning taqdimoti mamlakat aholisining ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlari mohiyatini anglatgan.

Movarounnaxrda qo'ychilik, asosan qorako'l va dumbali qo'y nasllarini yetishtirish juda rivojlangan. Axolining yarim ko'chmanchi qismi ko'p sonli qo'y podalariga egalik qilgan. O'troq axoli xam qo'y boqqan. Temuriyzoda Badiuzzamon Mirzoga Zunnun Arg'un birvarakayiga 40 ming qo'yni in'om etgan. Andijon qal'asini ximoya etganlar va ular yaqinlariga Xo'ja Mavlono Qozi 18 ming qo'yni ulashib bergan.

Qo'ylarning nasl tarkibi turlicha bo'lgan. Bu nasllardan biri boqiladigan maydon xududining kengayishi, extimol, Temur yurishlari bilan bog'lik bo'lib,

Xisori naslli qo'ylarga yaqin bo'lgan bu qo'ylar bir paytlar Volga bo'yi, Bulg'or, Oltin O'rdada yetishtirilganligi aniqlangan. Bular dumbali qo'ylar guruxiga kiritiladi.

Xo'jalik xayotida yilqichilikka muxim o'rin ajratilgan. Turli nasldagi otlar, jumladan "o'zbek", "turkman", "arab" va boshqalar ko'paytirilgan, yurg'a otlar juda qadrlangan. "Bu yerlarda otlar chidamliligi bilan mashxurdir".

Shoshilinch xabar yetkazish uchun tez chopishga moslangan otlardan foydalanilgan. Xar bir bekatda maxsus kishilar otlarga qaragan. Otlarni asosan ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi axoli yetkazib turgan, biroq o'troq axolining ko'pchiligida anchagina otlar bo'lgan.

Ot gushti va sutidan U rta Osiyo axolisi keng foydalangan. Biya sutvdan ayniksa issik xavoda yokimli bo'lgan kimiz tayyorlangan. Ot gushti sevimli ozik-ovkat maxsulotlaridan biri bo'lgan. Uning turli bulak va a'zolaridan xar xil taomlar tayyorlangan.

Chorvachilik go'sht, yog', sut, jun va teri bergan. U ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi axoli xayotida muxim o'rin tutgan.

Jamiyat xayotida va ayniqsa xukmron tabaqa muxitida ovchilik muayyan o'rin tutgan. Temur, Ulug'bek va sulolaning boshqa vakillari ov bilan mashg'ul bo'lishgan. Bu ular uchun ko'ngil ochar mashg'ulot, xarbiy yurishlar oralig'idagi dam olish, davlat ishlaridan bo'sh paytda xordiq chikarish bo'lgan. Ular ov qushlari va itlari bilan bir kancha a'yonlari davrasida ovga chiqishgan. Maxsus kiyikchilar podshox ov qilishi uchun mo'ljallangan joylarda qush va xayvonlarni qo'riqlagan. Samarqand tumanlaridan Afarikent suv qushi ovlash uchun eng yaxshisi xisoblangan.

Movarounnaxriing madaniy voxasi ko'chmanchi dasht bilan yonma-yon edi. Qadimdan O'rta Osiyo voxasining o'trok dexqon axolisi ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi xalqlar bilan munosabatda bo'lishgan. Bu ularning iqtisodiy va etnik madaniy jixatdan o'zaro ta'sirini vujudga keltirdi.

Temur qo'l ostidagi (keyinchalik temuriylar) yerning bir qismi ko'chmanchi - chorvadorlar tomonidan band edi. Temur xukmdorligi davridan

boshlab nisbatan “chig’atoy”lar ko’prok ta’sir ko’rsatdi. Ular imtiyozli sharoitda bo’lib mamlakatning asosiy xarbiy tayanchi bo’lgan. Zamondoshlari ta’rificha yosh erkak-chig’atoylar o’q- yoy otishga moxir, jasur jangchilar edi.

Ko’chmanchi xo’jalik davlatda ma’lum o’rin egallagan. U qoramol, mol, ot, qimiz, sut-qatik, jun, namat yetkazib berar edi. Xo’jalik xususiyati ko’chmanchilardan yil davomida mavsumiy yaylovlarni o’zgartirishni, sharoit va yaylov joyiga mos xolda ma’lum joylarda yashashni talab etgan. Shu tufayli mavsumiy ko’chish va qo’nish davrida ularning bir qismi dexqonchilik bilan mashg’ul bo’lishgan. Yarim o’trok axoli ziroatchilik bilan chorvachilikni qo’shib yuborishdi.

Ko’chmanchi va yarim ko’chmanchi axoli o’rtasida ba’zi bir xunarmandchilik turlari, ayniqsa gilam toqish, namat bosish va yeriga ishlov berish rivojlangan edi. Ular shuningdek ot va tuyachilik bilan xam shug’ullanishgan. Asosiy boyligini esa chorva, asosan go’sh tashkil etgan. Taxminan to’rt yuz uzun “qora mato” (kigiz) o’tovdan iborat kabilalardan biri xaqida Klavixo shunday ma’lumot beradi: “Ularning ko’plab qo’y-qo’chqor, mol podalari mavjud, bundan tashqari yigirma ming tuyasi bor.

Movarounnaxr qishloq axolisiga asosiy go’sht ko’chmanchilar chorvasidan yetkazilgan.

Umuman olganda ko’chmanchi axoli ijtimoiy munosabatda bir xil emas edi. Chigatoylar aloxida imtiyozga ega bo’lib urushda xal qiluvchi kuch sanalgan. Ular yaylovlar bo’ylab bermalol yurishlari mumkin bo’lgan va soliq yig’ishdan ozod qilingan.

Ko’chmanchi chorvachilik rayonlarida dumbali qo’ylar va qorako’l qo’ylari ko’plab boqilar edi. Qoraqalpog’istonda qoramol, turkmanlarda qo’y, tuya. va otlar ko’p boqilar edi. Chorvachilik maxsulotlari (jun, tyeri, go’sht, sut va boshqalar) ko’chmanchilarning o’z yarim natural xo’jaligida ishlatilar, bir qismi esa g’alla va gazlamaga ayirboshlanar edi. Ko’chmanchi qabilalarning xotin-qizlari kigiz,

chakmon uchun junni qayta ishlash bilan shug'ullanib, kigiz qalpoq, arqon, paloslar tayyorlaganlar, moxirlik bilan gilamlar to'qiganlar.¹

O'rta Osiyoda xayvonlarga yem-xashak uchun ko'p yillik o'tlar, ya'ni beda ekish qadimdan rivojlangan edi. Ba'zi yillarda yoz davomida bedani 4-5 martalab o'rib olar edilar.

Dehqonchilik yerlaridan olinadigan asosiy soliq, xiroj (yoki mol) deb atalgan. Xiroj, asosan xosil yetilib, uni yig'ib olish vaqtlarida maxsulot, ba'zan pul xolida to'langan. Soliq xosilga va yerning unumdorligi xamda suv bilan ta'minlanganligiga qarab belgilangan. Chunonchi, daryo, buloq va koriz suvlari bilan sug'oriladigan obikor yerlardan xiroj xosilning uchdan bir qismi miqdorida olingan. Agar yer egasi xirojni pul xisobida to'lashga rozi bo'lsa, unda xosilning uchdan bir qismi bozor narxi xisobida pulga chaqilgan. Masalan, 1461- yilda Sulton Abusaid vazirlari Xo'ja Muxuddin Sheroziy va Xo'ja Mavlono Amiriy Samarqandiyni Movarounnaxrga yuborib, ularga dudong, ya'ni oltidan ikki (33,3 %) miqdorda xiroj olishni buyuradi. Agar xosilning cho'g'i o'rtachadan pastroq bo'lsa, xiroj to'qqizdan ikki, ya'ni 22 % miqdorida to'langan.

Lalmikor yerlarning unumdorligi obikor yerlarga nisbatan past bo'lgani uchun, lalmikorlik bilan mashg'ul bo'lgan muzoriylar umu- miy xosilning oltidan bir, ya'ni 16,5 % dan sakkizdan bir, ya'ni 12,5 % Gacha miqdorida soliq to'laganlar.

Mulk yerlarining bir qismidan ushr, ya'ni Xosilning o'ndan bir qismi (10%) miqdorida soliq olingan. Bunday yerlar, odatda, zamonasining ilm-fan, ma'rifat va ma'naviy xayotining akobir va ashraflari qatoridan joy olgan sayyidlar, xo'jalar, ulamo va masho- yixlar tasarrufida bo'lgan. Masalan, XV asrning eng yirik mulkdorlaridan Xo'ja Axror o'ziga qarashli qariyb 1300 yer-mulkidan xar yili Samarqand xukmdori Sulton Axmad xazinasiga faqat g'allaning o'zidan 80 ming botmon miqdorda ushr to'lab turgan.

¹ Temur va Ulug'bek davri tarixi. –T.: „Qomuslar bosh tahririyati” 1996. 118-b

Bu davrda bog' va daraxtzorlardan mol sardaraxt, yaylovlardan mol o'tloq va suvloq kabi soliqlar olinib, ularni to'plashda kadimdan rasm bo'lib kelgan tartib-qoidaga amal qilingan. Chorva mollaridan qirqdan bir, ya'ni 2,5 % miqdorda zakot solig'i olingan.¹

Yer soliqlari, xiroj, mol, ushr va sardaraxt xamda chorva mollaridan olinadigan zakotdan tashqari fuqaro soliq yig'ish va uning Xisob-kitobi bilan band bo'lgan turli lavozimdagi ma'murlarning xizmati uchun xam bir qancha yig'implar to'lashga majbur bo'lgan. Masalan, bunday yig'implardan soxib jamona— xosil miqdorini belgilovchilar; muxassiloni — soliq yig'uvchilar; mirobona — suv taqsimlovchi miroblar foydasiga olingan.

¹ Muhammadjonov A. Temur va Temuriylar saltanati. T.: „Qomuslar bosh taxririya“ 1994.- B-96-97.

Soliq muayyan uch muddatda: saraton (iyun — iyul), sumbula— mezon (avgust va sentyabr) va qavs (noyabr) oylarida to'lanar edi. Soliqlarni yig'ish paytida soliqchilar dehqon, chorvador yoki bog'bonga nisbatan zug'um o'tkazmasligi, jismoniy kuch ishlatmasligi va ishni urush-janjalgacha olib bormasligi zarur bo'lgan. Umuman qarzdorlarni bandi qilish va zanjir bilan kishanlab, ularga nisbatan qattikchoralar ko'rishga soliqchilarning xaqqi yo'q edi. Soliqlardan tashqari mexnatkash axoli xukmdor va uning ma'murlari, suyurg'ol egalari va tarxonlar, shuningdek yirik mulkdorlar foydasiga muayyan muddat tekin ishlab berishga majbur edi. XV asrda qurilish ishlari kengayib, bu davrda qad ko'targan saroylar, jamoat binolari, mudofaa inshootlari xamda yo'l qurilishi va tuzatishlarida mexnatkash axoli kuchidan keng foydalanilgan. Bunday xashar ishlar begor deb atalgan. Begorda qatnashuvchi xar bir hasharchi ishlashi uchun kerakli asbob-anjomlar va yetarli yemaklarni o'zi bilan olib kelishi lozim bo'lgan. Bu esa shubxasiz, xasharchilar axvolini yanada mushkullashtirar edi. Bu davrda xukmdor va uning ma'murlaridan tashqari yirik mulkdorlar ham muzoriylarni begor yo'li bilan ishlatish xuquqiga ega bo'lgan. Masalan, Xo'ja Axror 300 qo'sh yerdan 300 nafar muzoriyni begorga chiqara olgan.¹

Bu davrda axolining mashaqqatli begor bilan naqadar band bo'lib qolganini Navoiy

Yer xolin anglamoq, umididin noumid men,

Xalqning yuz mexnatu begoridin bekormen,

misralarida ochiq ifodalagan. Bu yerda XIII asrning mashxur mutafakkir shoiri Sheroziyning quyidagi so'zlarini keltirish o'rinlidir:

«Agar xukmdor o'z fuqarosining bog'idan bir dona olma olib tanovul qilsa, uning yaqinlari olma daraxtini ildizi bilan sug'urib ketadilar. Agar xukmdor xalqning besh dona tuxumini qonunsiz olsa, uning lashkarlari xalqning minglab tovug'ini sixga tortib yuboradilar». Shuning uchun xam Temur va uning ba'zi bir vorislari soliq miqdori va to'lov tartibini buzmaslikka, suiste'mollikni oldini olishga xarakat qilganlar. Tartibga rioya qilmagan ayrim ma'murlarni jazoga tortganlar. Shunga qaramasdan, soliq yig'uvchilarning o'zboshimchaligi muttasil davom

¹ Muhammadjonov Amir Temur va Temuriylar saltanati.-T.: „Qomuslar bosh taxririya.“1994. B-96-97.

etavergan. Masalan, Sulton Xusayn ma'murlari axoliga o'zboshimchalik bilan favqulodda soliq solgani oqibatida 1470- yilda Muxammad Yodgor boshchiligida Xirot axolisi qo'zg'olon ko'taradi. 'Navoiyning sa'y-xarakati va o'zboshimcha ma'- murlarning jazolanishi bilan qo'zg'olon bostirildi. Sulton Xusayn farmon chiqarib Xirot va uning atrofida yashovchi dexqonlar, muzoriylar va xunarmandlarni ikki yilga favqulodda soliqlardan va qo'shinni boqish uchun solinadigan to'lovlardan ozod qilishga majbur bo'ladi.¹ Yuqoridagi soliqlardan tashqari favqulodda soliqlar ham amal qilgan bo'lib, ularga: molujihot- yer solig'ining bir turi bo'lib, pul yoki natura tarzida to'lanishi mumkin bo'lgan; Uning strategiyasida insonparvarlikka asoslangan mukammal jamiyat qurish g'oyasi markaziy o'rin tutadi. Ungacha xazinani idora qilish faqat dargoh tamoyiliga asoslangan bo'lsa, u dargoh va vazirlik tamoyillarini qo'shib olib bordi. Xazina daromadlari solikli va soliqsiz daromadlarga ajratildi. Xazina xarajatlari tarkibidan obodonchilik ijtimoiy-madaniy, shu jumladan, fan, madaniyat, ijtimoiy ta'minot xarajatlarining hissasi ortib bordi. Bularning hammasi mamlakatning iqtisodiy va madaniy jihatdan mustahkamlanishi, uning xalqaro mavqeini oshirishda faol ta'sir etdi.² Amir Temur Markaziy Osiyo iqtisodini rivojlantirishga, fan va madaniyatni qanchalik ko'tarishga uringan bo'lmasin, shafqatsiz to'lqinlar u tashkil etgan buyuk saltanatni parchalanishiga, parokanda bo'lishiga olib keldi. Uning vafotidan so'ng avlodlari o'rtasida taxt uchun kurash uzoq davom etib, shahzodalar o'rtasida olib borilgan kurash o'lkaning moliya-soliq tizimiga ta'sir ko'rsatmay qolmadi. Ulug'bek davrida Samarqand yana ravnaq topdi. Bu davrda san'at va ilm-fan rivoji uchun shu qadar katta ishlar qilindiki, bu davrni «Samarqandning oltin davri» deb atay boshlashdi. U soliq siyosatida dehdonlardan olinadigan soliqlarni kamaytirdi va dehqonlar faravonligini o'stirishga imkon yaratdi. Tushumlar qisqarishining o'rnini esa tamg'a- xunarmand va savdogarlardan olinadigan yig'imni ko'paytirish hisobiga to'ldirdi. Amir Temur va temuriylar davrida bir qadar tartibli soliq tizimi amal

¹ Muhammadjonov A. Temur va Temuriylar saltanati. T.: Qomuslar bosh taxririyyati 1994.- B-98-99.

² Temur tuzuklari. -T.: „Sharq“ 2005 99-b

qilgan. Amir Temur va temuriylar davridagi soliq siyosati, uning yuritilish tartibi, undirilishiga oid qonun-qoidalar, to'lovchilarga berilgan imtiyozlar, bosib olingan hududlar uchun Amir Temur tomonidan qo'llanilgan soliq islohotlari, yig'ilgan

Soliqlardan xarajatlarni moliyalashtirish uchun ishlatish me'yorlari avvalgi davrlar soliq islohotidan tubdan farq qilib, ularni to'liqroq o'rganish hozirgi kunda ham ahamiyatlik bo'lib hisoblanadi.

O'sha davrda ham iqtisodiy rivojlanishning soliq tizimi bilan chambarchas bog'liqligi yaxshi ma'lum edi. Soliq yig'imi qancha yuqori bo'lsa, ishlab chiqaruvchilar manfaatdorligi kamdir, ammo soliqning pastligi aholi uchun qulay bo'lgani

bilan, davlatning boshqaruv, mudofaa va boshqa maqsadlariga doimo to'g'ri kelavermaydi. Shularni yaxshi tushungan hukmdorlar soliqni iloji boricha me'yorida saqlab, uni yigishning ma'lum adolatli usullarini qo'llanganlar.

Masalan, Ulug'bek hukmronligi davrida g'alla g'aram qilinmasdan avval soliq To'plash qat'iyati man etilgan, chunki dehqon hosil yig'ib olgachgina real soliq to'lash imkoniga ega bo'ladi. Soliq aniq uch muddatda, dehqon hosil pishishiga qarab olingan. Sohibqiron Amir Temur va uning avlodlari jahon tarixida faqat buyuk sarkarda zukko siyosatdon sifatida emas, balki bilimdon davlat rahbari va mohir xo'jalik tashkilotchisi sifatida munosib va o'chmas iz qoldirdi.

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki. O'rta Osiyo mintaqasi qadimdan boy tarihgga ega. Bu diyor So'g'diyona, Baqtrya, Xorazm kabi ulkan davlatchilik, Kir II, Doro I, Aleksandr Makedonskiy kabi yirik bosqinchilikni va o'z navbatida ulkan madaniy aloqalarni boshidan o'tkazdi. Ammo asrlar osha sayqallanib, rivojlanib kelgan milliy davlatchilik, madaniyat, memorchilik, hunarmandchilik mo'g'ullar bosqini davrida tanazzulga yuz tutdi. O'rta Osiyo o'z boshidan ulkan madaniy inqirozni boshidan kechirdi. Ana shunday paytda Amir Temur saltanati yuksak davlatchilik ta'limoti yaratilgan bosqich sifatida o'ziga xos ahamiyat kasb etdi. Saltanatda joriy etilgan boshqaruv asoslari o'z davrida nafaqat mamlakatda istiqomat qilayotgan kishilarning manfaatlari hamda farovonligi uchun xizmat qilgan, balki g'arb va sharq davlatlari o'rtasidagi munosabatlar, halqaro hayotning iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy barqarorligi, rivojiga ham samarali ta'sir ko'rsatgan.

Amir temur buyuk saltanat barpo etgan, ammo ayni zamonda ulug' hukmdorning o'zi ana shu buyuk saltanatning parchalanish jarayonnin ham hali tiriklik davridayoq boshlab bergan edi. Chunki Temurnig o'zi Farg'onani hisobga olmaganda Movorounnahrni hech kimga bermasdan qolgan hududlarni to'rt qism – mulkka bo'lgan. Bu ulus mulklar nomigagina markaziy hoimyatga bo'ysunar edi. Aslida esa o'ziga xos mustaqil davlat bo'lib olgan. Suyurg'ol qilib berilgan yer mulklar Oliy hukumatning farmoni bilan Avloddan – avlodga o'tavyergan. Bu hol buyuk saltanatning bo'laklarga bo'linib ketganligining asosiy sababidir. Ana shu ma'noda Temur salanati shaklan buyuk va qudratli bo'lib k'rinsa-da, aslida uning iqtisodiy asoslari mustahkam asosga qurilmagan edi.

Suyurg'ol Amir Temurgacha xam mavjud edi. Temur davrida esa u keng rivojlandi. Xarbiy yurishlar tufayli Amir Temur xukmronligiga juda katta xududlar o'tdi. Egallangan viloyatlarni amir suyurg'ol asosida boshqarishga asosan o'z o'g'illari va nevaralarig'i berar edi. Soliq daxlsixligi bu o'rinda xarbiy va davlat xizmati bilan shartlangan.

Amir Temur va uning temuriylar davrida yerning ma'lum qismi vaqf etib berilgan. Vaqf yerlar diniy, xayriya, madrasa, o'quv va boshqa muassasalar foydasiga tashkil etilgan. Mexnatkash axoli o'rtasida esa vaqfkor yerlar nomi bilan yuritilgan. Amir Temur va temuriylar davrida Movarounnaxr va Xurosonda juda ko'p masjid, madrasa, maqbara va shifoxonalar barpo qilinib, juda katta dehqonchilik yerlari vaqf qilingan. Odatda, yer va suvdan tashqari ko'plab do'kon, korxona, tegirmon, objuvox, boxor, karvonsaroylar xam vaqf qilinib, ulardan tushgan daromad masjid, madrasa, shifoxona va xonaqoxlarning ta'miri, jixozi, mutavalli, mudarris, tabib va talabalarga beriladigan nafaqalar xamda langarxona (musofirxona) va shifoxonalarni kundalik xarajatlari uchun sarf etilgan. Nazariy jixatdan vaqf yerlar daxlsiz sanalsa xam amalda bu qoidaga xar doim rioya etilmagan. Dehqonlar mamlakat axolisining asosiy qismini tashkil etar edi. Barcha soliq to'laydigan axoli kabi ular "ra'iyat" atamasini olgan, biroq mulkiy munosabatqa turli ijtimoiy qatlamga ajralar edi. Dehqonchilik asosan sug'oriladigan hosildor yerlarda va lalmi dehqonchilik uchun qulay bo'lgan adirlar, tog' va tog' oldi hududlarida rivojlangan edi. Yerda mehnat qiladigan kishilarning asosiy qismi kambag'al qishloq aholisi bo'lib, ular o'z yer maydoniga ega bo'lmasdan, ijaraga olingan yerda lehqonchilik qilib kun kechirgan.

Bu davrda bosh xukmdor tomonidan yirik mulk egalariga biron-xizmatlari uchun tarxon yorlig'i berish keng tarqali. Tarxonlik yorlig'ini olgan mulkdorlar xujjatga asosan barcha soliq, to'lov va majburiyatlardan odoq etilgan. Tarxonlik yorlig'i, odatda, amirlar, beklar, saroy amaldorlari, sayyidlar va boshqa yuqori tabaqa vakillarig'i berilgan. Bunday yorliqni olgan mulkdor ismiga "tarxon" so'zi qo'shib ishlatilgan.

Amir Temur davlatni boshqarishda mamlakat mustaqilligiga, el-yurt osoyishtaligiga, uni obod etishga katta axamiyat berdilar. Bu davrda mo'g'ullarning muttasil bosqinlari oqibatida vayronaga aylangan Samarqand, Buxoro. Termiz, Marv, Banokat (Shoxruxiya) kabi qadimiy shaxarlar, bir qancha katta-kichik Qal'a va istexkomlar qayta tiklandi. Amir Temur shaxsining ulug'ligi uning Chingizxondan

keyin hududining kattaligi jihatidan dunyoda ikkinchi buyuk saltanatga asos solganligida emas, yoki o'zining Sohibqironlik faoliyati davomida 30 marta yurishlar qilib, biror marta bo'lsa-da yengilmaganligida ham emas uning mardligi va qahramonligi kabi g'oyatda muhim fazilatlarida ham emas, albatta. Bu fazilat va omillar ham so'zsiz Amir Temur shaxsini ulug'lashda va uni jahonga mashhur qilishda katta o'rin tutgan.

Temuriylar davrida dehqonchilik maydonlarining ikkinchi kattagina qismi xususiy yerlardan iborat bo'lib, yirik mulkdorlarning katta yer maydonlari ham, mehnatkash ziroatchilarning mayda paykallari ham xususiy mulk qatoriga kirgan. Mulk yerlarining katta qismi ma'muriy, harbiy va diniy arboblarning tasarrufida bo'lgan.

XV asrda temuriylar davrida dunyoviy mulkdorlarninggina emas, balki ruxoniy mulkdorlarning xam yer-mulklari juda ko'payib, kattalashib ketdi. Abusaid zamonida yuqorida nomi aytilgan Xo'ja Axrorning qulida juda katta yer-suv to'plana boshlaydi. lekin mamlakatda iqtisodiy va madaniy hayot yuksak darajada saqlanib qoldi.

Temuriyzodalar o'rtasidagi o'zaro urushlar, birodarkushliklar nafaqat quyi tabqqa ahlining, balki yirik zodagonlarning ham noroziliklariga sabab bo'ldi. Temuriylar davlatidagi siyosiy tarqoqlik, ayrim hukmdorlarning ajralib, mustaqillikka intilishi bu davlatning yemirilishiga olib keldi. Natijada Amir Temur asos solgan ulkan saltanat tanazzulga yuz tutdi va tugatildi. Lekin shunday bo'lsada Temur boshlab bergan obodonchilik ishlarini uning avlodlari ham davom ettirdi. Hususan bu davrda ham yerga egalik qilish munosabatlari bir muncha yaxshilandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари // Хавфсизлик ва тараққиёт йўлида. 6-жилд. – Т.: Ўзбекистон, 1998.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Т.:, Ma'naviyat” 2008.
3. Karimov I. A. Amir Temur haqida so'z. Т.:,O'zbekiston” 1996. Asarlar. Т.:O'zbekiston-1997. Jild V.
4. 2. Karimov I.A. Sohibqiron kamolga yetgan yurt. Asarlar. Т.:,O'zbekiston”. 1997.
5. 3. Karimov I. A. Xalqimiz bor ekan, Amir Temur nomi barhayotdir. Asarlar. Т.:,O'zbekiston”1997. Jild V.
6. 4. Karimov I. A. Amir Temur faxrimiz-g'ururimiz. Asarlar. Т.:,O'zbekiston”1997. Jild V.
7. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Амир Темур таваллудининг 660 йиллигини нишонлаш тўғрисида”ги қарори // Тошкент ҳақиқати. - 1995 йил..
8. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси Тарих институти фаолиятини такомиллаштириш тўғрисида” ги Қарори // Халқ сўзи. 1998 йил
9. Амир Темур жаҳон тарихида. Иш раҳбари С.Саидқосимов. – Т.: „Шарқ”. 1996.
10. Ahmedov. B. Amir Temur darslari. Т.:Sharq-2001.
- 11.Ahmedov. B. Amir Temur va Ulug'bek zamondoshlari xotirasida. Т.:O'qituvchi-1996.
- 12.Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. Энг қадимги даврдан Россия босқинига қадар. - Т.: „Шарқ”. 2000.
- 13.Axmedov B.O'zbeiston tarixi manbalari. Т.: „O'qituvchi” 1991.

14. Бўриев О. Темурийлар даври ёзма манбаларида Марказий Осиё. - Т.: „Ўзбекистон”. 1997.
15. Xalqaro Amir Temur Jamg’armasi. Amir Temur saboqlari. –Т.: „ G’ofur G’ulom “ 1999
16. Muhammadjonov A. Temur va Temuriylar saltanati. -Т.: „Qomuslar bosh taxririya” . 1994
17. Nizomiddin Shomiy . Zafarnoma.-Т.: „ O’zbekiston” . 1996
18. Naim Norqulov. Temuriylar davri madaniyatidan lavhalar. –U.: „ Xorazm” – 1996
19. Қодиров А. Ўзбекистон ирригацияси. – Т.: „ O’zbekiston “ .1998.
20. Темур ва Улугбек даври тарихи. – Т.: „Қомуслар бош тахририяти”. 1996.
21. Somon yo’li. Tarihiy adabiy majmua. Т.: “Kamalak”, 1992
22. Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. Т.: Sharq nashriyot-matbaa konserining Bosh tahririya. 1997.
23. Shamsutdinov R. T, Karimov Sh, Hoshimov S. Vatan tarxi 1- qism. – Т.: „Sharq ” . 2016.
24. Temur tuzuklari. –Т.: „ Sharq” 2005
25. Temur va Ulug’bek davri tarihi. – Т.: „ Qomuslar bosh tahririya” . 1996.
26. Захириддин Мухаммад Бобур. “Бобурнома”, Т., 1989
27. Ziyoyev H. Buyuk Amir Temur saltanati va uning taqdiri. Т.: Ma’naviyat- 2008
28. Ўзбекистон тарихи (Олий ўқув юртлирининг номутахассис факультетлари талабалари учун дарслик). Профессор Р.Х. Муртазаевнинг умумий тахрири остида. – Т.: “Янги аср авлоди”, 2003